

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”  
Pedagogika fakulteti dekani,  
dotsent \_\_\_\_\_  
X.Mavlyanov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017- yil**

**5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, BT 49-  
2013-guruh bitiruvchisi**

**AKBAROVA NIGORA SHUKURJON QIZINING**

**“O'QISH DARSLARIDA “MA'NAViyAT-QALB QUYOSHI”  
MAVZUSI O'RGANISH METODIKASI (4-SINF)” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“Himoyaga tavsiya etildi”  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasi mudiri, f.-m.f.n.**

**\_\_\_\_\_ T.Abdullayev  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2017-yil**

**BMI rahbari: \_\_\_\_\_  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
M.Hamidova**

**Namangan – 2017**

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. 4-SINF O`QISH DARSLARIDA “MA`NAVIYAT-QALB QUYOSHI” MAVZUSINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI</b> .....	10
1.1. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganishning maqsad va vazifalari.....	10
1.2. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganishning ahamiyati.....	15
<b>II BOB. 4-SINF O`QISH DARSLARIDA “MA`NAVIYAT-QALB QUYOSHI” MAVZUSINI O`RGANISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH</b> .....	36
2.1. Ilg`or texnologiyalardan foydalanib 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish.....	36
2.2. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish darsining metodik ishlanmasi.....	49
2.3. Tajriba-sinov ishi.....	58
<b>XULOSA</b> .....	74
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI</b> .....	76

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Ma'lumki, san'at turlari orasida adabiyot alohida o'rin tutadi. Badiiy adabiyotda hayot boshqa sann'at turlariga qaraganda to'laqonliroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda aks ettirilgan hayot serqirra va ta'sirchan bo'ladi. Tasavvur qilaylik, biz biror bir asarni o'qish bilan mashg'ulmiz. Bu asar qahramonlarining biz uchun hech qandaya qinlik yeri yo'q. Lekin asardan bosh ko'tra olmaymiz. Asar qahramonlarining taqdiriga bizning taqdimiz qo'shilib ketadi. Ular qiynalsa, qiynalamiz, quvonsa, rohatlanamiz. Ba'zan yig'lab olishga ham to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qish darslarida berilgan har xil janrdagi asarlar orqali o'quvchilarda yuqoridagi kabi xis-tuyg'ularni shakllantirish mumkin.

Uzoq o'tmishga ega bo'lgan o'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shu boy merosning tub negizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning har bir asarlarida<sup>1</sup>, shuningdek, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning har bir ma'ruzalarida<sup>2</sup> biz ta'kidlab o'tgan fikrlar keng va atroflicha o'z aksini topgan desak yanglishmaymiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarini oladigan bo'lsak, asar uning "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak"<sup>3</sup> degan gapi bilan boshlangan.

Respublikamizning "Davlat tili" haqidagi Qonuni, "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yoshlarimiz xalqimizning shakli va tayanchi. – T.: Ma'naviyat, 2006.; Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- B. 1.

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaror, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Qaror va boshqa hujjatlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Bu biz keng tatbiq qilib o’rganayotgan bitiruv malakaviy ishimizga ham taalluqlidir, desak yanglishmaymiz.

Yuqorida qayd qilingan tushuicha va muammolarni talqin qilish va javob topishga intilish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2013-yil 6-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 21 yilligiga bag’ishlangan tantanali yig’ilishida qilgan ma’ruzalarida ilgari surgan quyidagi fikrlarni ilgari surdi:

“Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlang’ich sinf davridir. Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski, yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish asosan o’rta maxsus ma’lumotga ega bo’lgan muallimlarga topshirib qo’yilgan edi.

Boshlang’ich ta’limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy ma’lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo’lgan pedagog kadrlar bajarmoqda.

Qabul qilinadigan dasturda boshlang’ich ta’limning sifatini oshirish, ta’lim standartlari, o’quv dasturlari, darslik va qo’llanmalarni takomillashtirish, ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari o’z ifodasini topishi kerak”<sup>4</sup>.

Yurtboshimiz tomonidan ushbu ma’ruza jarayonida yana 2014-yilning nomlanish masalasiga keng to’xtalinib, “Sog’lom bola yili” deb e’lon qilishni taklif etilgan.

“Endi sizlar bilan kirib kelayotgan yangi-2014-yilga qanday nom berish haqida maslahatlashib, fikrlashib olishimiz kerak.

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug’ kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so’zi, 2013-yil, 7-dekabr.

Azal-azaldan har qaysi ota-ona o'z bolasining sog'lom va barkamol bo'lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o'rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug', eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz.

Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog'lom ona-sog'lom bola masalasi davlat siyosatining usutuvor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizlarga yaxshi ma'lum.

Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Ana shularning barchasini hisobga olgan holda, har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida men kirib kelayotgan yangi-2014-yilni mamlakatimizda “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilishini taklif etaman”<sup>5</sup>.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligi munosabati bilan 2016-yilning 7-dekabr kuni “O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida bo'lib o'tgan tantanali tadbirida “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusida qilgan ma'ruzasida “Ayni vaqtda hozirgi murakkab zamon tinch-osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda”<sup>6</sup> degan fikri ham yuqorida ta'kidlab o'tilganlarni tasdiqlaydi.

Demak, ushbu masalani hal etish ta'lim jarayoning tarbiyaviy tomonlariga va uning sifatiga, ayniqsa, o'quvchilarning mustqil fikrlash malakalarini shakllantirishga

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so'zi, 2013-yil, 7-dekabr.

<sup>6</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

e'tiborni kuchaytirishni talab etmoqda. Bu o'z navbatida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd qilingan tushuicha va muammolarni talqin qilish va javob topishga intilish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir.

Yuqorida qayd qilingan tushuicha va muammolarni talqin qilish va javob topishga intilish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprel kuni "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida "Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasida ishlar yetarli darajada olib borilmayapti.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun sharoitlar yaratilishini ta'minlash kerak"<sup>7</sup>.

Ushbu qaror ijrosi bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan ijobiy ishlarning natijasi sifatida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida dars berayotgan pedagoglarning oliy ta'limda dargohlarida oladigan bilim darajalariga e'tibor yanada kuchaytirila boshlandi. Bu esa ularning yosh avlod ta'lim-tarbiyasida, ayniqsa, mustaqil fikrlash malaklarini shakllanishida o'z ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

2017-yil 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori // Xalq so'zi, 2017-yil.-21-aprel.

ilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishlari e'lon qilinganligi, ushbu farmoyishda ta'kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratilganligi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etib kelinayotganligi, Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatayotganligi, umuman, ushbu Farmoyishda ko'rsatilganidek ishchi guruhlar ikki oy muddatda mutasaddi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, matbuot va axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishni inobatga olgan holda, tegishli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kirishishganligi, hattoki, tajriba-sinov ishini olib borish jarayonida o'tkazilgan bu boradagi tadbirlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yaqinda yordam beradi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qish darslarining samaradorligini oshirish orqali yoshlarni milliylikka va badiiy asarga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga, kitob bilan do'stlashishga undaydi. Umuman olganda, yosh avlodni ijodiy qirralarini ochishga, yangidan-yangi iste'dolarni kashf etishda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Boshlang'ich sinf o'qish darsida har xil janrdagi asarlar, xususan, hikoya janridagi asarlar berilgan. Ushbu asarlar orqali o'quvchilarning fikr doirasini kengaytirishda, aql-idrokini rivojlantirishda, kuzatuvchanlik hislarini, nafosat tuyg'ularini o'stirishda zarur omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilarni hamkorlik hamda tashabbuskorlik malakalari rivojlantiriladi.

Shularga e'tibor berilgan holda "O'qish darslarida "Ma'naviyat-qalb quyoshi" mavzusi o'rganish metodikasi (4-sinf)" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz ustida ish olib bordik.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda 4-sinf o'qish darslarida "Ma'naviyat-qalb quyoshi" mavzusi (bo'limi) ni

o`rganish metodikasini tahlil etishni asosiy maqsad qilib qo`ydik. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

- 4-sinf o`qish darslarida berilgan “Ma`naviyat-qalb quyoshi” (bo`limi) mavzusini o`rganish metodikasi bilan o`quvchilarni yaqindan tanishtirish;

- bo`limga kirgan asarlar xususida to`liq ma`lumot berish;

- dars samaradorligini oshirish jihatlarini tahlil jarayonlarini hosil qilish;

- ta`lim mazmunini boyitish va o`qish jarayonida turli metodning samaradorligini oshirish;

- o`qish darslariga yangicha yondashuv tizimini yaratish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

- yangi pedagogik texnologiya asosida 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarning “Ma`naviyat-qalb quyoshi” (bo`limi) mavzusini o`rganish metodikasi haqidagi tushunchalarini shakllantirish yo`llarini keng va atroflicha tahlil qilish.

#### **Bitiruv malakaviy ishining obyekt.**

Biz oldimizga qo`ygan muammoni o`rganish uchun Namangan viloyati Namangan shahridagi 31-maktabining 4-sinf o`quvchilarini tadqiqot obyekt qilib oldik. Ushbu obyektida 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” (bo`limi) mavzusini o`rganish metodikasini tahlil qildik.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” (bo`limi) mavzusini o`rganish metodikasini o`rganishning mazmuni, shakli va usullari.

#### **Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.**

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati shundaki, 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” (bo`limi) mavzusini o`rganish metodikasi haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritadi. Bitiruv malakaviy ishimizdagi kuzatish va qarashlarimiz mavjud fikrlar asosida boyitilib, ishning amaliy qimmatini oshirishni ko`zda tutadi.



Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning material va xulosalaridan 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” (bo`limi) mavzusini o`rganish bo`yicha olib boriladigan darslarida unumli foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## I BOB. 4-SINF O`QISH DARSLARIDA “MA`NAVIYAT-QALB QUYOSHI” MAVZUSINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganishning maqsad va vazifalari.

Yurtimizni azaldan daholar yurti deb, haqli ravishda hamisha faxrlanib kelamiz. Avlodlariga o`rnak bo`lish borasida bizning bobfkalonlarimiz betakror ta`rifga egadir. Ogohlik borasida ham yurt egalariga yetarlicha namuna bo`lishgan. Har bir xalq o`z kelajagi uchun qayg`urgani kabi bobomiz Shiroq ham yurt kelajagi uchun qayg`urdi. Kerak bo`lganda o`z jonini ayamadi. Hozir kelajagimiz haqida qayg`urish uchun jonini fido qilish shart emas, chunki qancha zamonlardan beri Vatanimizda tinchlik hukmron. Lekin tinchlik barqaror deb xotirjam bo`lib qolmasligimiz, loqaydlikka yo`l qo`ymasligimiz lozim. Bizning eng asosiy dushmanimiz shu loqaydlikdir. Yonimizda ketayotib qoqilib tushgan safdoshimizni turg`izib qo`yish, so`qmoqqa yuzlangan yo`lini adashtirganlarni katta yo`lga solish bizlarning burchimizdir. Yoshlarimizning oq-u qorani tanigani, ilm-ma`rifat yo`lini tutgani, milliy qadriyatlarimizni chuqur anglagani ma`naviyatlidir. Ma`naviyatimiz yuksak bo`lsagina o`z vatanimizni yuksak cho`qqilarga olib chiqishimiz, biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan keng ko`lamda foydalanishimiz va ularni qoyil qoldirishimiz bunga zamin yaratadi desak hech mubolag`a bo`lmaydi.

O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganlaridek: “Kelajakda O`zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma`naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim”<sup>8</sup>.

---

1. Karimov I.A „Barkamol avlod orzusi“. „Sharq“ nashriyot-matbaa konserni bosh taxiriyati Toshkent-1998 yil 14-bet

Hozirgi davrda respublikamizda yoshlarga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlar o'z samarasini bermoqda. Buning yaqqol natijasi o'laroq shu kunlarda yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar va muvafaqqiyatlar kundan-kunga ortib bermoqda. Sport va ta'lim sohasida, tadbirkorlik sohasida, ishlab chiqarish va san'atda yoshlarning faoliyati hamda harakatlari bilan faxrlansak arzigulikdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimiz baxt-u saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir."<sup>9</sup> Darhaqiqat, bugunning egasi, kelajakning poydevori bo'lgan yoshlar yetuk tafakkur, cheksiz imkoniyat, aql-idrok ila o'z qadamlarini qo'ymoqdalar.

Jahon hamjamiyatida har qanday sohada o'z bilimi va saviyasi bilan qo'rqmay bellasha oladigan yoshlar vatanimiz kelajagini yanada gullatadi. Ta'limning barcha sohalarida grant sohiblari, stipendiantlar, magistrilar, fan doktorlari, fan nomzodlari, umuman olganda, jamiyat uchun kerak shaxslar yetishib chiqmoqda.

Kelajak uchun mustahkam poydevor qurish va uni ardoqlash, e'zozlash qadr-qimmatini bilishimiz albatta biz yoshlarimizning qo'lida. Buning uchun avvalo yoshlarimizning o'z- o'zligimizni anglamog'lariga erishish darkor. O'zlikni anglash tarixni bilishdan, milliy qadryatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, milliyligimizni o'rganishdan, bilishdan boshlanadi. Odamzot borki, avlod -ajdodi borki nasl-nasabini, o'zi tug'ilib o'sgan mahalla, qishloq, bir so'z bilan aytganda, Vatanining tarixini bilishga qiziqadi va o'rganadi ham. O'zbekiston deb ataluvchi hudud bu bizning vatanimiz ekanini anglaydi. O'zini irodali inson deb biladigan har bir yosh avlod tarixiy xotirasiga ega bo'lib, u buyuk kelajak qurishda o'zining ulkan hissasini qo'sha oladi deb hech ikkilanmay ayta olamiz.

---

<sup>9</sup> Ш.М.Мирзиёев. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- 104 б.

Shunday yoshlarimiz borki VATAN o'z taqdiri hamda kelajagini yorqin ko'ra oladi. Zero, qariyalari duoda, avlodlari komillik cho'qqisida va jamiyati mustahkam yurt uzoq hamda buyuk yo'lni qo'rqmay bosib o'ta oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Ma'naviyat-qalb quyoshi" bo'limiga kirgan har xil janrdagi asarlarni o'rgatishda o'z Vatani uchun jonini qurbon qilgan xalq qahramonlari haqidagi afsona va rivoyatlardan foydalanish ham nihoyatda katta foyda berishi tabiiy. Afsona va rivoyatlardagi o'z vatanining ozodligi yo'lida ko'rsatilgan qahramonliklar yoshlarni buyuk jasoratlarga undaydi. Ulardan ibrat olishga chorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Ma'naviyat-qalb quyoshi" bo'limi orqali ularning ma'naviy dunyoqarashini yanada kengaytirib boriladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asprida ta'kidlab o'tganidek: "Dunyodagi zo'ravon va tajvuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalombor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi"<sup>10</sup>.

Ma'naviyat inson ruhiy kamolotining muhim mezonlaridan birini tashkil qiladi. U millat abadiylikini va mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ustuvor omil hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi"<sup>11</sup> - deb ta'kidlaganligi bejiz emas. Ma'naviyatning ana shu muhim roli va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, milliy-ma'naviy tiklanish, yoshlarni yuksak ma'naviyat sohibi va barkamol inson qilib tarbiyalash mustaqilligimiz sharoitida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mazkur siyosatni real hayotga tadbiiq etishda respublikamizda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tuzish hamda

---

<sup>10</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 176 b.

<sup>11</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998.- B. 7.

uning faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlanib chiqarilgan Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarga "Ma'naviyat-qalb quyoshi" o'rganishni quyidagi talablar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'limni insonparvarlashtirishning markaziy masalasi yoshlarda yuksak ma'naviyat, yuksak axloq, fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning or-nomusi, sha'ni, iymoni, mas'uliyati kabi tuyg'ularni, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ma'naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iborat.

2. O'quvchilarni millatimizning boy ma'naviy merosidan oziq oladigan, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy imkoniyatlari, keng dunyoqarashi aql-idroki bilan o'zaro muvofiq kelishi zarur.

3. O'zbekiston mustaqillik tufayli jahonga yuz tutdi, jahon ham O'zbekistonga o'z bag'rini ochmoqda. Binobarin, endi biz tarbiyalayotgan kadrlar jahon xalqlari bilan doimiy muloqotda bo'ladilar. O'zbekistonga, uning xalqiga har bir kadrning shaxsiy intellekti, ma'naviy-axloqiy qiyofasiga qarab baho beradilar, munosabat belgilaydilar. Bunday sharoitda bo'lajak mutaxassisning o'z kasbini qay darajada ustasi ekanligi, ayni chog'da O'zbekiston fuqarosi sifatidagi fazilatlariga, ya'ni ma'naviy dunyosiga qarab xorijliklar xalqimiz, mamlakatimiz haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Buni har bir yosh avlod, jumladan, o'quvchilar nazarda tutishi, shundan kelib chiqib ta'limga, xususan, o'z ma'naviy dunyosini boyitishga munosabat belgilashi, o'z-o'zini, milliy o'zligini anglashi muhim.

4. Mustaqil Respublikamizda mavjud bo'lgan muammolarni hal etish kaliti yurtimizda ma'naviy-axloqiy muhitni milliy zaminda sog'lomlashtirishdir. O'zbek milliy xususiyatidagi do'stlikni, hamkorlikni, hamnafaslikni, iymonli-e'tiqodlilikni ulug'lash, qiyin ahvolda qolganlarga har doim yordamga kelish, shukronalik bilan yashash, bosiq-vazminlik, insof-diyonatlilik fazilatlarini shakllantirishga yordam berish kabi talablar qo'yilgan.

"Ma'naviyat" tushunchasining mohiyati. Ma'naviyat har bir insonning ichki ruhiyatining ijobiy qirralari, aql-zakovati, uning o'z-o'zini anglashi, aniq maqsadlar sari faollik ko'rsatish salohiyati ekanligi.

Inson shaxsining shakllanishi ma'naviyatning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqligi, ma'naviyat, shaxs, millat va jamiyat omillari o'zaro bog'liq ekanligi.

Ma'naviyat rivojlanishidagi milliy ma'naviy meroslarga, uning taraqqiyot tajribalariga tayanish va milliy ma'naviy ta'sir ko'rsatish, uzaro boyitish va umuminsoniy qirralarni o'zlashtirish qonuniyatlari.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi, bilimdonlik, qalbi poklik, saxiylik, samimiylilik, xayrixohlik, imonlilik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqat, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqatlilik, milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan ma'suliyati, milliy manfaat ustuvorligini xis etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san'at, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni o'zlashtirish, davlat tizimiga hurmat, qonunlarga itoatkorlik, jamoa an'alariga xayrixohlik, vazminlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, mamlakat ichki va tashqi siyosatidan xabardor bo'lish, hayotida bo'ladigan qarashlarda faollik ko'rsatish kabilarning ma'naviyat kategoriyalari ekanligi.

Ma'naviyat jamiyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligi. Uning shaxs faolligini va mehnat unumdorligini oshirish, jamiyatda totuvlik, yakdillikni ta'minlash va umummilliy manfaatlarni uyg'unlashtirishda qudratli kuch ekanligi. Milliy istiqlool g'oyasining ma'naviy asoslari.

Ma'naviy meros, madaniyat, qadriyatlar, ma'rifat va mafkura ma'naviyatning tarkibiy qismi ekanligi.

Ma'naviy meros-ma'naviyat rivojlanishining uzoq davrlar davomida tarkib toptan, avloddan-avlodga boylik sifatida o'tib boruvchi, inson aql-zakovatining mevasi sifatida keyingi avlodlarga xizmat qiluvchi boylik ekanligi.

Ajdodlar ma'naviy merosining avlodlar hayotida namoyon bo'lishi va uning xususiyatlari. Ma'naviy meros ildizlarining mustahkamligi va chuqurligi milliy taraqqiyotning muhim omili ekanligi.

***Qadriyat tushunchasi.*** Uning jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham iktimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib,

ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy boylik ekanligi. Uning butun insoniyat tomonidan fan, texnika, axloq, odob, tafakkur, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlarda namoyon bo'lishi. Milliy, diniy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar va ularning o'zaro munosabatlari.

**Madaniyat tushunchasi.** Uning insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasi ekanligi. Ma'rifatning bilim va ilmni anglatuvchi tushuncha ekanligi. Ma'rifetni rivojlantirish savodxonlik va ilmiy salohiyatining darajasini ko'tarish ekanligi.

**Mafkura tushunchasi.** Uning davlat, jamiyat, millat, sinf yoxud ijtimoiy guruhlar manfaatini ifodalovchi, himoya qiluvchi siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy, badiiy g'oya, nazariya va qarashlar tizimi ekanligi. Milliy g'oya va milliy mafkura, ularning o'zaro munosabati. Milliy g'oya, milliy mafkura millatni birlashtiruvchi va uni umummilliy maqsadlarga yo'naltiruvchi qudratli omil ekanligi.

Ma'naviy meros, qadriyatlar, madaniyat, ma'rifat va mafkura kabi omillarning shaxs, millat, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati.

4-sinf o'qish darslari orqali o'quvchilarga "Ma'naviyat-qalb quyoshi" bo'limi orqali quyidagilarni to'la ravishda yetkazishga e'tibor beriladi. Ushbu bo'lim orqali o'quvchilar Husayn Voiz Koshifiyning "Salomlashish odobi", Yusuf Xos Hojibning "Odamdan nima qoladi?" asarlari, Munavvrqori Abdurashidxonovning "Har kim ekanini o'rar" she'ri, "Chaqimchiga "Mukofot" ertagi, Murod Xidirning "Ikki saxiy" ertagi berilgan.<sup>12</sup>

Ushbu bo'limga kirgan mavzular asosida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashi shakllantirib, rivojlantirilib boriladi.

## **1.2. 4-sinf o'qish darslarida "Ma'naviyat-qalb quyoshi" mavzusini o'rganishning ahamiyati.**

---

<sup>12</sup> Matchonov S. va boshqalar. O'qish kitobi. 4: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- T.: Yangiyo'l poligraf servise, 2011.- B. 24-35.

Ma'lumki, kichik yoshli o'quvchilar hayotiy hodisalar, turli voqealar tasvirlangan hikoyalarni, shuningdek, hali o'zlariga notanish bo'lgan narsalarni o'qib o'rganishga qiziqadilar. Kishilar hayoti va ularning o'zaro munosabatlarini bilishga intiladilar. Ularning ana shu xususiyatlaridan foydalanib o'qish darslarida tarbiyaviy ta'sir o'tkazish mumkin. Bu esa o'z navbatida darslikka kiritilgan bo'lim materiallari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, biz bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobida keng to'xtalayotgan "Ma'naviyat-qalb quyoshi" bo'limiga kirgan har xil janrlagi asarlarning o'rnini kattadir.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish darsliklarga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o'qitiladi.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Masalan ertak janri xususida to'xtaladigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shib ketadi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo g'alaba



qilishi bolalarni o`ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so`z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta`sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko`pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo`lgan yovuz, baxil, ochko`z obrazlarga bo`linadi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o`quvchilar unda to`g`rilik, halollik g`alaba qilganidan, kambag`al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya`ni yaxshilik, ezgulik ro`yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo`lishini istaydilar. Masalan, “Halollik” ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag`allarga yordam ko`rsatish, o`z mehnati bilan hayot kechirish bo`lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g`oyasi ilgari surilgan bo`lsa, “Hiylagarning jazosi” ertagida (4-sinf) soddadilning to`g`riligi hiylagarning makri ustidan g`olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g`oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to`g`riso`zlikning g`alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g`alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko`nikmasini o`stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g`alaba qozonishiga ishonch uyg`otadi. O`quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida “Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?) Nima uchun?”, “... nima uchun jazolandi? (yoki rag`batlantirildi?)”, “Nima uchun ertakdagi ba`zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba`zilaridan yuz o`giradi?)” kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang`ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko`proq o`qitiladi. “Bo`rining tabib bo`lgani haqida ertak” (Anvar Obidjon), “Ko`zacha bilan tulki”, “Olapar, Mosh, Musicha” kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o`qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o`qish, savollarga javob berish, o`quvchilarning o`zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik

tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birlikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Bunda tanlab o'qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, "Odobli bo'lish osonmi?" (A. Obidjon) ertagining mazmunini o'zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Sichqonchanning onasi bilan qilgan suhbatini o'qing. Sichqonchanning "Odobli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?" degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so'zlab bering.

2. Sichqonchanning Mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o'rinni topib o'qing. Nima uchun "Shum Baroq" ko'zidagi yovuzlik birdaniga so'nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani «Kam bo'lma» deb duo qiladi? SHu o'rinni topib o'qing.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida "Ertakda sizga juda yoqqan joyini topib o'qing", "Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini ayting", "Hayotingizda ertakdagi voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?" kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, "Davlat", "Ilm afzal", "Hiylagarning jazosi", "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning hulq - atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va

shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo`lib o`qiydilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o`qishgagina emas, balki uni aytib berishga o`rgatish ham muhimdir. ertak aytish og`zaki nutqni o`stiradi, bolalar nutqini yangi so`z va iboralar bilan boyitadi.

O`quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o`rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o`qituvchi aytib berishi mumkin.

O`quvchi ertak mazmunini o`zlashtirib olgandan so`ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o`quvchilarning o`z nutqida til vositalaridan o`rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so`z va iboralar borki, ular bolaga o`zgacha ta`sir ko`rsatadi. Masalan, “Yo`lbars, Tulki va Bo`ri” ertagida “Tog` echkisi siz ulug`imizniki bo`lsin”, “Quyon siz podshohimizning ertalabki nonushtangiz bo`lsin”, “Kiyik kechqurungi taomingiz, qo`y kunduzgi xo`ragingiz bo`lsin” kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko`rsatilgan so`zlarga o`quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so`zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g`oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo`li bilan bog`lanishli nutqni o`stirish, nutqning ta`sirchanligini oshirish, shuningdek, mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirish lozim. Masalan, “Rostgo`y bola” (1-sinf) ertagida bola o`z rostgo`yligi bilan podshoga ma`qul bo`lganligi hikoya qilingan. Ertak g`oyasiga mos xulosa esa “Boshingga qilich kelsa ham to`g`ri gapir” maqoli bilan ifodalangan. O`quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o`zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

O`quvchilarning mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishda boshlang`ich sinf o`quvchilariga mos bo`lgan usullardan biri rasmdan foydalanishdir. Masalan, 2-sinfda “Ko`ngilchan o`tinchi” ertagida qayin, eman, shumtol, zarang, zirk, tog`terak, qarag`ay, qayrag`och, chinor kabi daraxt nomlari keltirilgan. Ularni bola ko`z oldiga

keltira olmaydi. ertakni o`qishdan oldin shu daraxt rasmlarini ko`rsatib, uning o`ziga xos xususiyatlarini izohlash va nomlarini aytish lozim. Shundan so`ng didaktik o`yin o`tkaziladi:

“Daraxt rasmlari bolalarga bo`lib beriladi. Har bir o`quvchi o`ziga berilgan rasmdagi daraxtning nomini aytishi va ertakdagi shu daraxtning so`zini o`z mustaqil fikrlari bilan aytib berishi kerak bo`ladi”.

Shu ertakni o`qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o`quvchilardan shaylanib, ro`parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo so`zlarining ma`nosi so`raladi. Javoblar to`ldiriladi, umumlashtiriladi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o`rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. O`quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash.
2. O`qituvchining ertakni ifodali o`qishi, yod aytib berishi;
3. Ertakni o`quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o`tkazish;
4. Ertakni qismlarga bo`lib o`qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma`nodosh so`zlarni topish, lug`at ishi (ayrim so`zlar ma`nosini tushuntirish);
5. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o`qish);
6. Ertakni so`zlab berish;
7. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g`oyasini ochish);
8. Ma`lum vazifa bilan ertakni qayta o`qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
9. Vazifani tekshirish va yakunlash;
10. Uyda ertakni o`qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

Ertak o`tish darsi namunasini keltiramiz:

Masalan, 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilar “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limi orqali o`quvchilar “Chaqimchiga “Mukofot” ertagi bilan yaqindan tanishadilar.

Chaqimchiga “Mukofot”

Qadim zamonda hokimlardan biri ovga chiqdi. Hokim va u bilan birga ovga chiqqanlar bir yerga kelib to`xtadilar. Hamma biror ish bilan mashg`ul bo`ldi. Hokim o`z jilovdori-otboqarini yoniga chaqirib:

- Sen bilan birga otda chopishni ko`p vaqtdan beri orzu qilaman, kimning oti chopqir ekanini bilishni istayman,- dedi

Otboqar qabul qildi, otiga minib chopdi, hokim uning ketidan quvladi. Shikor joyidan ancha uzoqqa ketdilar. Hokim otini to`xtatib, otboqarga ham to`xtashga buyruq berdi, uni yoniga o`tkazib:

- Ey jilovdor, ko`nglinga kelgan bir fikrni aytmoqchi bo`lib, sen bilan birga bu xoli yergacha ot choptirib keldim. Hammadan ko`ra senga ishonganim uchun sirimni faqat senga bayon qilaman, ehtiyot bo`l, hech kim sezmasin,- dedi.

- Otboqar ta`zim qilib:

- Modomiki, siz menga ishongan ekansiz, siringizni hech kimga oshkor qilmayman, hech kim voqif bo`lmaydi,- deb hokimga va`da berdi.

Hokim otboqarning so`zidan xursand bo`lib, ko`nglidagi sirini unga aytdi:

-Ukamning shu kunlarda qilgan harakatidan shubhaga tushib qoldim, meni o`ldirmoqchi bo`lsa kerak. Shuning uchun men ukamni yo`q qilmoqchiman. Sen yonimdan uzoqqa ketmay, meni asrab yur!

Otboqar hokimning sirini saqlashga, o`zini asrashga va`da berib, qasam ichdi. Hokim ovdan qaytib, o`z saroyiga kirishi bilanoq otboqar bevafoqlik qilib, xiyonat ko`chasiga qadam qo`ydi. Fursat topib, hokimning ukasiga eshitganlarini bayon qildi. Hokimning ukasi bu saqimchi otboqardan xursand bo`lib, unga inoyat va va`dalar qildi.

Hokimning ukasi yaxshi tadbir bilan o`zini asrar edi. Oradan ko`p vaqt o`tmay, hokim vafot etdi. Uning o`rniga ukasi hokim bo`lib, darrov chaqimchi otboqarni dorga osishga buyruq berdi. Chaqimchi otboqar o`zining qilgan xizmatini so`zlab, ko`p zor-u tazarru qilsa ham, yangi hokim qabul qilmay:

- Sirni fosh qilishdan, chaqimchilikdan yomonroq gunoh yo`qdir. Akam senga ishonib sirini aytdi, sen xiyonat qilib, sirini fosh qilding, menga kelib chaqding.

Akamga vafo qilmagan odam menga vafo qilarmidi? Ana endi qachimchiligingning jazosini tort,- deb dorga ostirdi.<sup>13</sup>

O`qituvchi ushbu ertak matni bilan o`quvchilarni tanishtirib bo`lgach, quyidagi savollarni berish orqali ularning bilim doirasini aniqlaydi:

1. Hokim otboqardan nimani iltimos qildi?

2. Otboqar hokimga nima uchun va`da berdi?

3. Otboqar va`dasiga vafo qildimi?

4. Hokimning ukasi nima uchun otboqarni dorga ostirdi?

5. U aybdorga chaqimchilik to`g`risida nimalar dedi?

6. Siz ushbu ertak bilan yaqindan tanishish orqali o`zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

7. Siz otboqarning o`rnida bo`lganingizda qanday yo`l tutgan bo`lar edingiz?

4-sinf o`qish darslarida xalq og`zaki ijodi namunasi bo`lmish “CHaqimchiga “Mukofot” ertagidan tashqari Murod Xidirning “Saxiy” ertagi bilan ham tanishadilar.

Ikki saxiy

Murod Xidir

I

Qadim zamonda bir saxiy g`oyat hotamligi bilan dovrug` solgan edi. U ekin ekkan, mol boqqan, xullas, tun-u kun ter to`kkan. Saxiy hamqishloqlariga har kuni nimanidir orttirib, nimanidir ulashgan. Xotini ham, farzandlari ham saxiyning ana shu xayrli ishiga allaqachon ko`nikib qolishga va saxiy bilan yonma-yon turib mehnat qilishga bel bog`lagan edilar.

Saxiyning kuni obi yovg`onga qolib, tishining kirini so`rgan kezlarda ham u o`z ahdidan tushmadi. Yo`g`on cho`zlilib, ingichka uziladigan qahatchilik yillarida ham uyning bo`sag`asida najot istab kelgan muhtojlarning qo`lini bo`sh qaytarmadi.

---

<sup>13</sup> Matchonov S. va boshqalar. O`qish kitobi.4: Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- T.: Yangiyo`l poligraph servise, 2011.- B. 30-32.

Shu orada qishloqning yana bir odami hammaga saxovat eshigini lang ochib yubordi. Birinchi saxiyga taassub qilib, u bor budini bir boshdan ulashaverdi. Uy jihozlaridan qolgan eng so`nggi bo`yrasini ham ayamadi. Endi odamlar biror nimaning ilinjida ko`proq unikiga yopirilib keladigan bo`ldilar.

Hamma hayron, hamma lol edi. Kim chin saxiy? Axir ular hotamlikda bir-biridan o`zib borayotir-ku! Shuni ajrim qilib bera oladigan dono bormi olamda?!.. Bor edi... Ha, har qanday jumboqni tafakkur ko`zi bilan yechadigan birdan-bir donishmand chol xuddi shu qishloqda yashar edi. U naq yuz qovun pishig`ini ko`rgan bo`lsa-da, hamon hushyor va ziyrak, serfahm va zukko edi. Boshi qotgan bir guruh odam o`sha donishmandnikiga ravona bo`ldi. Qalin bir kitobni mukka tushib mutolaa qilayotgan chol qoshiga kelib, ular muddaosini aytishdi:

- Buvajon, har ikki saxiy haqida eshitgansiz, albatta. Shu kunlarda birinchi saxiynikiga keluvchilar ancha siyraklashib qoldi. Ikkinchi saxiy ham hech kimdan hech nimani ayamayapti. Odamlarga sug`urib beradigan faqat o`ttiz ikki tishi qoldi, xolos. Agar gal kelsa, o`sha tishlarining ham bahridan o`tishi hech gap emas. Ayting, buvajon, kim chin saxiy? Qaysi biri?

Kitobni yonboshiga olib qo`ygan nuroniy chol biroz sukut saqladi.

1. Odamlar nima to`g`risida tortishib qolishdi?
2. Sizningcha qanday odamni saxiy deyish mumkin?

## II

So`ngra huzuriga kelganlarning o`zini savolga tutdi:

-Ayting-chi, birinchi saxiy hojatmandni kuztayotganda, unga nima deb so`z qotadi?

- Hech nima demaydi, buvajon,- deyishdi ular baravariga.

- Barakalla!- dedi chol.- Ikkinchi saxiy-chi?

- Olqish ustiga olqish yog`ilaytganda,- dedi ulardan biri,-ikkinchi saxiy: Men buni savob yo`lida qilyapman xolos”, deb qo`yadi, xolos.

- Xo`sh, xo`sh!- chol jonlanib.- Yana-chi?

- Yana, yana,- dedi ulardan boshqa biri boshini qashib,- hojatmandlar minnatdorchilik izhor etishayotganda, ikkinchi saxiy: “Meni duo qilsanglar bas”, deydi, vassalom.

Cholning serajin yuziga tabassum yugurdi:

- Masala ravshan, o`g`illarim,- dedi chol va bo`lak hech nima aytmay jimib qoldi.

-Yo`q, yo`q. Buvajon, muammoni oxirigacha yechib berasiz, kim saxiyiligini ajrim qilasiz.

- Bu yog`ini o`zlaringga havola qilgandim,- dedi chol salmoqlab so`zlarkan.- Mayli, aytsam ayta qolay. Birinchi saxiy bergan narsasi evaziga hojatmanddan hech nima-savob ham, duo ham tama qitlmaydi. Chunki birinchi saxiy: “nuqul savobni ko`zlab qilingan xayrli ish tamagirlikka kiradi, duoni so`rab olish esa tilanchilik bilan baravar”, deb o`ylagan.

Ikkinchi saxiyning tosh-u tarozisi bor. Tarozining bir pallasiga o`zi ulashgan narsani, ikkinchyai pallasiga savobdan qadoqlab olgan toshini qo`yyadi. Lekin uning hojatmanddan undirgan, ya`ni so`rab olgan duolari esa faqat foydaga qoladi.

Xullasi kalom, har bir hojatmand ikkinchi saxiyning dargohidan bir hissa boylikni olib qaytadi, ikki hissa boylikni esa tashlab chiqadi. Shu tariqa ikkinchi saxiyning o`zi hojatmandlardan bir umr qarzdor bo`lib qolayotir, endi siz mendan: “Ikkinchi saxiy hojatmanddan qarzini qachon uzadi”, deb ham so`rarsiz?

- Yo`q, yo`q, buvajon, bas, yetar, sizga ming ofarin, buvajon!-deganlaricha ular donishmand huzuridan shodmon qaytdilar.

Lekin donishmandning ikkinchi saxiy borasida aytgan so`zlari butun qishloqqa chaqin chaqmoqday tez tarqaydiyu, hojatmandlarning bari yana bari birinchi saxiylikiga yozilib keladgan bo`ladi. Ko`p o`tmay, ikkinchi saxiy el nazaridan qoldi<sup>14</sup>.

---

<sup>14</sup> Matchonov S. va boshqalar. O`qish kitobi.4: Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- T.: Yangiyo`l poligraph servise, 2011.- B. 32-35.



Ertak matni bilan yaqindan tanishgach, o`quvchilarga quyidagicha savolar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Donishmand ikkinchi saxiyning ishlarini nima uchun ma`qullamadi?

2. Birovga biron foydani ko`zlab yordam berish nima uchun ta`magirlikka kiradi?

O`quvchilarning ertak matnining ikkinchi bo`limi asosida o`quvchilarning fikr-mulohazalari eshitilib bo`lingach, ushbu bo`lim yuzasidan quyidagi tarzda umumiy savollar orqali, bo`limga kirgan har xil janrdagi asarlar yuzasidan o`quvchilarning o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalari aniqlanadi.

1. Inson odobi nimadan boshlanar ekan?

2. Siz o`rtoqlaringiz bilan qanday salomlashasiz? O`zingizdan kattalar bilan-chi?

3. Yaxshi odamlar o`zlaridan qanday nom qoldiradilar?

4. Bo`limdagi she`r va hikoyalar asosida “Inson odobi bilan” mavzusida insho yozing. Unda maqollardan misollar keltiring.

Boshlang`ich sinflarda ilmiy - ommabop asarlarni o`qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o`rgatishdan iborat.

1. Ilmiy-ommabop maqolalarni o`qish darsida o`rganish.

2. Ilmiy-ommabop maqolalarning tematik rang-barangligi.

3. Ilmiy-ommabop maqolalarda milliy qadriyatlar va ajdodlar ma'naviyatining aks etishi.

4. Maqolalarda Vatan ruhi va istiqlol nafasi.

5. Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o`qish darsi.

6. Ilmiy-ommabop maqolalarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.

Ilmiy-ommabop maqolalar muayyan talablarga javob beradigan, ya'ni ilmiy asosga va g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lgan, aniq dalil va hujjatlarga asoslangan, masalani ijtimoiy talabga bog'liq holda yoritadigan, ixcham va qiziqarli janrdir. Unda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali izchillik bilan ifodalanadi. Ommabop

maqolalar ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda ilmiy-ommabop maqolalarga keng o'rin berilgan. Bunday asarlarni o'qitishdan maqsad o'quvchi-larga ona-tabi'at ko'rki, yurtimizning boy ma'naviy merosga ega bo'lgan o'tmishi, bugungi ijtimoiy hayotda yaratuvchi kishilarning ulug'vor mehnati haqida muayyan bilim berish, ularni kitob bilan mustaqil ishlashga va o'qiganlaridan qoniqarli hayotiy xulosalar chiqara olishga o'rgatishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarning o'qish kitoblari kuzatilganda, ilmiy-ommabop maqolalarga keng o'rin berilganligi hamda ularning mavzu jihatidan rang - barangligiga guvoh bo'lish mumkin:

1. O'quvchilarga ona - Vatan va Istiqlol tuyg'usini singdiruvchi maqolalar.
2. Tabiat ko'rki va fasllar nafosatini vashf etuvchi maqolalar.
3. Barkamollikning axloqiy fazilatlarini hikoya qiluvchi maqolalar.
4. limning xosiyatini anglash va kitobga mehr qo'yishni targ'ib qiluvchi maqolalar.
5. Ajdodlar ma'naviyati va milliy qadriyatlarni qadrlashni o'rgatuvchi maqolalar.
6. Tinchlik va ijodiy mehnatni sharaflovchi maqolalar.
7. Ekologik larbiyaga undovchi maqolalar.

Ilmiy-ommabop asarlarni o'rganishda darslikda berilgan tarixiy asarlar ham muhim o'rin tutadi. Bularning qimmatli ahamiyati shundaki, o'quvchi ko'z o'ngida keksa tarix gavdalanadi. Ular bir-bir o'quvchi ko'z o'ngidan o'tadi. Boburning yashagan joylari, Boburnomada tasvirlangan joylar, qushlar, daraxtlar, bog'u rog'lar, dasht biyobonlar bolalar tasavvurida shakllanadi.

Ilmiy – ommabop asarlarning yana bir xususiyati shundaki, tarixiy shaharlar, tarixiy shaxslar haqida katta ma'lumotga ega bo'linadi. Ular haqida tushunchalari boyiydi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Umuman olganda, boshlang'ich sinflarda ilmiy – ommabop asarlarni o'rganish o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Shu

sababli boshlang'ich sinflarda ilmiy – ommabop asarlarni o'rganishga boshlang'ich sinflarda katta e'tiborni qaratish lozim, deb o'ylaymiz.

Bugungi ta'limda ilmiy-ommabop asarlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilyotganligi ham shundadir. Biz, boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda shunday mavzularga e'tiborni qaratish muhim ekanligini to'la tushunib yetish kerak degan fikrga kelishimiz va bu yo'lda katta ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Boshlang'ich ta'limda ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsi quyidagi tartibda tashkillashtirilishi mumkin:

—o'rganiladigan matn yuzasidan o'quvchilarning hayotiy tajibasi va bilimni aniqlash maqsadida muammoli vaziyat yaratuvchi savol-javob usulidan foydalanish;

—maqola tahliliga kirishishdan avval matn lug'ati ustida ishlash;

—maqola matnini ifodali o'qish va uning rejasini jamoa bo'lib tuzish;

—reja asosida hikoyalash;

—maqolaning g'oyaviy mazmunini muhokama qilishda tanlab o'qish, qisqartirib hikoya qilish usulidan foydalanish;

—umumlashtirish va xulosalash;

—maqolaga mustaqil ijodiy munosabat bildirish.

ilmiy-ommabop maqolalar kichik yoshdagi bolalarni davr talabiga mos dolzarb masalalar bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatadi, o'zligini boyitish va nutq madaniyatini shakllantirishga yaqindan yordam beradi. Darsda o'qituvchilar quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Ilmiy-ommabop maqolalarning mavzu jihatidan rang – barangligini qanday izohlaysiz?

2. Ilmiy-ommabop maqolalarda Vatan tuyg'usi qanday ifodalangan?

Masalan, Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” ilmiy-ommabop maqolasini o'rganish darslarida yuqoridagilardan keng foydalanish mumkin:

## Salomlashish odobi

Husayn Voiz Koshifiy

Salom- salomatlik ma`nsini ifodalaydi. Agar sendan necha mavrida salomlashish kerak, deb so`rasalar, yetti holatda, deb javob bergin. Avvalo: yor-u do`stlarni, aka-ukalarni ko`rganda salomlashish kerak. Ikkinchi: jamoat joylariga borganingda salom berishing lozim. Uchinchi: biror xonadonga borsang, uyerga salom berib kirgin. To`rtinchi: bir yerda jam bo`lib o`tirgan kishilar davrsiga kirsang, salomlashishni unutma, uni vidolashish (xayr-u xo`sh) salmlashish deyiladi. Oltinchi: maqbarga, qabristonga borsang, oila a`zolaringga salom berishni kanda qilma.

Hammomda salom berilmaydi. Qazoyi hojatdagi kishilarga, baland ovoz bilan qiroat qilayotgan odamlarga salom berilmaydi. Otliq piyodaga, turgan odam o`tirganlarga salom berishi lozim.

Kichiklar kattalarga, yolg`iz odam jamoat bo`lib turganlarga salom beradi. Salom berayotgan kishi ochiq chehrali bo`lishi darkor. Imo-ishora bilan emas, ovoz chiqarib salomlashish kerak.<sup>15</sup>

Ushbu mat`n bilan shquvchilarni tanishtirib bo`lingach, quyidagi savollarni berib, undan nimani o`zlashtirib olganliklari aniqlanadi:

1. Salom so`zi qanday ma`noni bildiradi?
2. Qaysi holatlarda salomlashish kerak?
3. Fanday holatlarda salom berilmaydi?

She`r - ohang jihatidan ma`lum bir tartibga solingan, his-tuyg`u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She`riy nutqni ohang jihatidan ma`lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo`laklarning izchil va bir me`yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so`zlar) hisoblanadi<sup>16</sup>.

---

<sup>15</sup> Matchonov S. va boshqalar. O`qish kitobi. 4: Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. - T.: Yangiyo`l poligraph servise, 2011. - B. 24-25.

<sup>16</sup> Номидий Н. va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati. - T.: O`qituvchi., 1967, 92 - bet.

She`rni o`qiganda kichik yoshdagi o`quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang`ich sinflarda she`r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya`ni she`riy asarlar va lirik she`rlar o`qitiladi.

She`riy hikoyada syujet, ya`ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she`r “biror hayotiy voqea-hodisa ta`sirida insonda tug`ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg`ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she`rning xususiyati “kishining his-tuyg`uga to`la hayajonli nutqini ta`sirliroq ifodalashda qo`l keladi”<sup>17</sup>.

She`rni o`qish darslarida asosiy ish turi ifodali o`qish hisoblanadi. O`quvchi she`rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o`qiy oladi. She`riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertakni tahlil qilishda qo`llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Lirik she`rni o`qish va tahlil qilish o`qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko`p hollarda she`rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she`riy san`at hissiyot bilan bog`liq ekanligi unutiladi, she`r ma`nosining satrlar, so`zlar zaminida yashirin berilishi anglab etilmaydi. Buning oqibatida o`quvchilar she`rdagi obrazlilikning mag`zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma`noni o`qish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta`limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She`riy ohangni his qilmaslik, matn so`zlarini to`la tushunib etmaslik she`r yodlashni zerikarli mashg`ulotga aylantiradi. Ma`nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o`rganiladigan “O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi” misolida ko`rish mumkin. Ma`lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo`ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi “hur o`lka”, “to abad”, “ilmu fan”, “shuhrating”, “ajdodlar”, “mardona ruhi senga yor”, “o`chmas iymoni”, “istiqlol mash`ali”, “tinchlik posboni”, “haqsevar ona yurt”, “mangu bo`l obod”, “jo`sh urgan” kabi ko`pdan-ko`p so`zlar, iboralar

---

<sup>17</sup>O`sha asar, 93 - bet.

o`quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta`limdan ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning “Qish to`zg`itar momiq par” she`rini o`rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She`rni o`qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o`tkaziladi yoki she`r mazmunini tushunish uchun o`quvchilar bilishi lozim bo`lgan voqealarni o`qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma`lumki, qish fasli go`zal ko`rinishi bilan odamda yoqimli tuyg`ular uyg`otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo`ron o`ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog`lar kishida ajib bir kayfiyat uyg`otadi.

“Qish to`zg`itar momiq par” (Qudrat Hikmat) she`rini o`rganish jarayonida agar qor yog`magan bo`lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, “kumush” sifati qo`shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo`lib tovlanishiga, ko`zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she`rni o`rganish darsi dastlab o`quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o`ziga xos belgilari, qishda o`ynaladigan o`yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o`tkaziladi. O`quvchilarning qish faslida sovuq bo`lishi tufayli ayrim qushlarning o`lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to`ldiriladi. Shundan so`ng o`qituvchi she`rni ifodali o`qiydi.

Boshlang`ich sinflarda ko`rgazmali ta`limning asosiy shakli she`rni ifodali o`qish hisoblanadi. Lirik she`rni ham o`quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she`r birinchi marta o`qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She`r o`quvchilarga qanday ta`sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O`qituvchi she`rni shunday ifodali o`qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so`z kuchliroq ta`sir etsin. So`ngra she`rni mustaqil o`qish topshiriladi. O`qish oddiy bo`lishi kerak. O`qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g`azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga

yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida doskaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, "Qish to'zg'itar momiq par" she'ri o'rganilganda "to'zg'itar", "momiq par", "oq namat", "nazdimda", "zarra" so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Unda quyidagicha savollar berilishi mumkin: "She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?", "Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?", "She'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?", "Shoir qorga qanday murojaat qiladi?". O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

"Qish" (Tursunboy Adashboyev) she'rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she'rni o'qishdan oldin ham o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkaziladi. O'quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o'zgarib, qorda o'zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o'siq yunglari sovuqda yashashga qo'l kelishi to'g'risida tushuncha beriladi. She'r matni bilan tanishishdan oldin doskaga "ayoz", "quyruq", "so'qmoq", "piyma", "po'stin" "pahmoq" so'zlari yozilib, ma'nosi izohlanadi. She'rni navbat bilan o'quvchilarga to'rt-besh marta o'qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo'lishi uchun boy material beradi.

O'quvchilar barglari to'kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko'rar ekan, shu holatni ifodalagan "qor ko'rpasiga o'rangan yalang'och daraxt" yoki "sovuqda mudrayotgan daraxt" kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o'quvchilarning lug'at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

She`r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she`r mazmuni haqida o`quvchilarga ko`p savol berish tavsiya etilmaydi. O`quvchilar she`rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o`zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o`ziga xos fikrlari, his-tuyg`ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o`zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she`rlar mazmunini to`liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she`rlarni o`qishga maxsus tayyorlaniladi: she`r mazmuniga asos bo`lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so`zlab beriladi yoki suhbat o`tkaziladi.

Boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan ko`pgina she`rlarni tahlil qilib, ifodali o`qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She`riy nutq engil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg`u uyg`otadi. Kichik yoshdagi o`quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she`rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o`quvchilarga she`rni qanday yodlash kerakligi o`rgatiladi. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilar bilan she`rni teng satrli bir necha qismga bo`ladi. O`quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to`xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo`lishi shart emasligi, ritmik to`xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo`lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Epik (voqeiy) she`rlar yoki she`riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo`lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o`xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo`laklarning izchil va bir me`yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so`zlarning qo`llanishi bilan she`riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o`rganishda she`r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.

Epik she`rlarni o`qishga o`quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she`rlarning mazmuni qay darajada o`zlashtirilganligiga ham alohida e`tibor qaratilishi lozim.



Bunda ta'limiy vositalar-rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qaxramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kul'minastion nuqtasi, echimi mavjud bo'ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonida ham tuzilishi mumkin.

Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealari jarayonida qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

She'ni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
- 2) she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she'ni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she'ni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash.

4-sinf o'qish darslarida o'quvchilar "Ma'naviyat-qalb quyoshi" mavzusi (bo'limi) orqali Munavvarqori Abdurashidxonovning "Har kim ekkani o'rar" she'ri bilan yaqindan tanishadilar.

HAR KIM EKKANINI O'RAR

Munavvarqori Abdurashidxonov

Bir kishining otasi

Ko'p yashamish, qartaymish.

Soch soqoli oqarmish,

Bellari kuchdan qolmish.

Non yeganda lablari  
Burni bilan so`zlashur.  
Choy ichganda qo`llari  
Qaltirashib, titrashur.

Beli ikki bukilgan  
Yuray desa yurolmas.  
Bir o`tirsa o`rnidan  
Ko`tarmasang, turolmas.

O`g`il, kelin, nevara  
Zerikdilar bu holdan.  
Qutulmoqchi bo`ldilar  
Bir ish qilib u choldan.

Kirib bir xilvat uyga  
So`zlashdilar uchovlon.  
O`g`il bilan nevara  
Qildi o`z fikrin bayon...

Kelin dedi: "Sizlarning  
To`g`r emas o`yingiz,  
Eng yaxshisi sahroga  
Olib chiqib qo`yingiz.

Birov ko`mar o`ligin,  
Ko`rmas bizning ko`zimiz.  
Mashaqqatsiz bu g`amdan  
Qutulgaymiz o`zimiz"...

O`g`il bilan nevara  
Kun kech bo`lgach, turdilar.  
Ko`tdilar u cholni  
Sahro sari yurdilar.

Bir o`ringa yetganda  
So`zga kirdi asta chol.  
Dedi: “O`g`lim, so`zimga  
Birozgina quloq sol.

Men otamni bir zamon  
Bu o`ringa keltirib,  
Tashlab ketgan chog`imda  
Qolgan edi termulib.

Navbat keldi o`zimga,  
Sen ham meni keltirding.  
Men otamga ne qilsam,  
Endi menga sen qilding.

Menga yarar shu o`rin,  
Bir kun senga ham yarar.  
El aro bir matal:  
“Har kim ekkanin o`rar”.

O`qituvchi ushbu she`r matni bilan o`quvchilarni yaqindan tanishtirib bo`lgach, ularning she`r orqali olgan fikr-mulohazalarini bilish uchun quyidagicha savollarni berishi mumkin:

1. O`g`il bilan nevara nima uchun otalarini sahroga chiqarib tashlamoqchi bo`lishdi?
2. Chol farzandiga o`z qilmishi to`g`risida nimalar dedi?
3. “Har kim ekkanin o`rar” maqolini qanday tushunasiz?
4. Siz ham o`g`ilning o`rnida bo`lganingizda ota-onangiz keksayib, hech bir ishga yaramay qolsalar biro bir yerga, ya`ni qariyalar uyiga tashlab kelasizmiz?
5. Siz bu o`rinda qanday yo`l tutgan bo`lar edingi?

Xullas, 4-sinf o`qish darslari orqali o`quvchilar “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusi (bo`limi) orqali yuqorida ta`kidlab o`tganlarimiz ilmiy-ommabop maqolalar, she`r, ertak janridagi asarlar bilan yaqindan tanishish orqali o`zlariga ma`naviy ozuqa oladilar. Albatta bular o`qituvchining sa`y-harakatlari orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun bu kabi asarlarning ma`naviy-ma`rifiy ahamiyati keng ekanligini his qilgan holda o`qituvchi o`quvchilarga ularni chuqurroq tushuntirib borishi lozim bo`ladi.

## **II BOB. 4-SINF O`QISH DARSLARIDA “MA`NAVIYAT-QALB QUYOSHI” MAVZUSINI O`RGANISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH**

2.1. Ilg`or texnologiyalardan foydalanib 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish.

Yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda zamonaviy o`qitish uslublari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o`quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation)- yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to`liq foydalaniladi. Interaktiv

metodlar – bu jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir etish usulari bo`lib ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o`quvchining dars davomida befarq bo`lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- o`quvchilarni o`quv jarayonida bilimga bo`lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo`lishini ta`minlash;
- o`quvchining bilimga bo`lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;
- pedagog va o`quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o`rganayotgan o`qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya- bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog`liq hamda o`qitish jarayonida qo`llanishi zarur bo`lgan TSO, kompyuter, masofali o`qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o`qituvchi va o`quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog`liq deb hisoblaymiz, ya`ni o`qitish jarayonida, maqsad bo`yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo`llaniladigan har bir ta`lim texnologiyasi o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o`quv jarayonida o`quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o`zlari xulosa qila olsalar, o`zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho Bera olsa, o`qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o`qitish

jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, bo`lim mavzulari, o`quv fanining o`ziga xos texnologiyasi bor, ya`ni o`quv jarayonidagi pedagogik texnologiya- bu yakka tartibdagi jarayon bo`lib, u o`quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo`naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan jarayondir.

Ta`lim oluvchilarning innovatsion qobiliyati uning yaratuvchanlik qobiliyati, yangilik yaratish qobiliyatining qay darajada shakllanganligi bilan belgilanadi. O`zbekiston ta`lim sistemasining innovatsion qobiliyati bugungi kunda butun dunyodja o`zining ilg`orligi bilan amaliyotda sinab ko`rilgan o`qitishning yangi metodi va usullarini - interaktiv metodni ta`lim jarayoniga tatbiq etish bilan belgilanmoqda. Ko`pgina metodik innovatsiyalar ta`limning interaktiv metodlari bilan bog`liq bo`lmoqda.

Bugungi kun ta`lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Biz keng o`rganayotganimiz diktant yozishga o`rgatish darslarida ham undan keng foydalanishimiz mumkin.

Xo`sh, interfaol usullar deganda nimani tushunamiz?

**Interfaol (inglizcha interastion, ya`ni, inter - aro, o`zaro; ast - harakat ma`nosini bildiradi). Interfaol usullar** - bu o`zaro harakat, ya`ni hamkorlik asosida o`qitish va tarbiyalashdir. Ularning 4 ta asosiy **turi** mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o`yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o`yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o`qitish, bevosita faoliyat.

Bunday usullarning barchasida ham o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi hamkorlik, o`quvchining ta`lim jarayonidagi faol harakati ko`zda tutiladi.

**Qarorlar shajarasi**<sup>18</sup> usuli asosan o`tilgan mavzularni takrorlash, umumlashtirish maqsadida foydalaniladi. Unda bolalar kichik guruhlarga bo`linadi,

---

<sup>18</sup> Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. –B.68.

har bir guruh birorta mavzudan tushgan masala bo'yicha belgilangan vaqt davomida (3-5 daq.) topshiriq bajaradi (misol uchun, «So'z turkumlarga tavsifnoma berish», «yil fasllarni baholash»). Sung 1-guruh 2- guruhga, 2-guruh 3-guruhga, 3-guruh 4-guruhga o'z topshiriqlarni davom qilish uchun beradi. Bunday harakat har bir guruhga o'z topshirigi qaytguncha bajariladi. Keyin guruhlar o'z masala bo'yicha berilgan topshiriqni navbati bilan taqdim etadi va baholanadi.

«Tarmoqlar» metodi (Klaster).<sup>19</sup>

Fikrlarning tarmoqlanish - bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq, fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Biz shu o'rinda bir ilmiy-ommabop maqolalar bo'yicha olib borilgan dasr ishlanmasini keltirib, fikrimizni yoritamiz.

Masalan, 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilar Erkin Malikovning «Assalom, Neksiya»<sup>20</sup> maqolasi bilan yaqindan tanishdilar. Bu maqola «Istiqlolim-istiqbolim» deb nomlanuvchi bo'limga kiritilgan.

Mavzu: Assalom, Neksiya! Erkin Malikov.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarni mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti haqidagi tushunchalarini boyitish. «Neksiya», «Tiko», «Damas», «Matiz» avtomobillari haqida ma'lumot berish.

---

<sup>19</sup> Ko'rsatilgan manba. –B.79.

<sup>20</sup> Shojalolov A. O'qish kitobi.- Toshkent, 2002.- B.8-9.

2. O`quvchilarda dunyoga mashhur bo`lgan shunday avtomobillarni ishlab chiqarayotgan Vatandan faxrlanish tuyg`usini uyg`otish.

3. Nutq boyligini oshirish, bog`lanishli nutqni o`stiish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, ilmiy-ommabom asar o`qish darsi.

Dars metodi. Izohli o`qish, suhbat, tarmoqlash metodi.

Darsning jihozi. Avtomobillar rasmi, aftomobil zavodining ishlab chiqarish faoliyati tasvirlangan rasm.

Darsning borishi.

I. O`tilgan maavzuni so`rash va mustahkamlash. 1. Suhbat uchun savollar:  
Uyga kimning she`rini yod olishga berilgan?

- Abdulla Oripov haqida nimalarni bilasiz?

- She`r nima uchun «Iqboli buyuksan» deb nomlangan?

- She`rdagi qaysi so`zlarning ma`nosini o`rgangan edik?

2. She`rni yod aytirish (yod olmagan o`quvchilarga o`qitiladi).

3. She`r matni yuzasidan suhbat. – She`rning dastlabki ikki misrasining ma`nosiga doir qaysi hadisni o`rgangan edik? Yod ayting. – Siz hayotni kimlardan va nimalardan o`rganasiz?

4. O`tilgan mavzuni xulosalash va o`quvchilar bilimini baholash.

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. Asarni o`qishga o`quvchilarni tayyorlash.

Aqliy hujum. O`zbekiston yo`llarida qaysi mashinalar qatnaydi?

Qaysi mashinalar kishilar mehnatini yengillashtiradi?

O`quvchilar javobi doskaga yozib beriladi.

- Ularning qaysilari avtomobil guruhlariga kiradi.

- Qaysi avtomobillar O`zbekistonda ishlab chiqarilmoqda?

- Tiko, Neksiya, Damas, Matiz ishlab chiqarilgan.

Savol-javob orqali o`quvchilar fikrlarining to`g`ri va noto`g`riligini bilib oladilar.

Doskaga mavzu va muallif nomi yoziladi, o`quvchilarning muallif haqida oldingi darsda olgan bilimlari so`raladi.



O`qituvchi: O`quvchilar, «Assalom, Neksiya!» asarida nimalar haqida hikoya qilingan?

2. Matn bilan tanishtirish. Asar matnini o`qituvchi o`qib beradi.

3. Asar yuzasidan dastlabki suhbat:

Asar nima haqida ekan?

Mashina zavodi qaysi davlatlarning hamkorligida qurilgan ekan?

Zavod qurish haqida qachon qaror qabul qilingan?

Zavod qaysi yildan qurila boshlangan?

Neksiya, Tiko, Damas avtomobillari qaysi yili dunyo yuzini ko`rdi?

Ichda o`qish. Topshiriq. Matnni ichingizda o`qing. Ma`nosi tushunarsiz so`zlarni daftaringizga ozing.

5. Lug`at ishi.

Loyihalash- bino, inshootlar, mashinalarni qurish, tiklash uchun ishlangan chizmani tuzmoq.

Konveyr- ishlayotgan narsalarni bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga yetkazib, to`xtovsiz aylanib turadigan maxsus moslama.

Karot- turli mexzanizmlarning changdan, namdan saqlab turadigan, ochilib yopiladigan temir qopqog`i.

Qoliplash -qolipga solmoq.

Kuzov- avtomobillarning odamlar yoki yuk joylashadigan qismi.

6. Matnni qismlarga bo`lib o`qish. Topshiriq.

- Bolalar. Matnni o`qiyotgan vaqtingizda sanalarni esda saqlab qoling, ishlar nimalar orqali bajarilishini yodda tuting.

1-, (2-,3-) qismni o`qing va mazmunini qayta hikoyalab bering.

7. Matnning 2-qismida murakkab jarayonlar ifoda etilgani, turli atamalar mavjudligi uchun uning ustida quyidagicha suhbat o`tkaziladi.

Suhbat davomida avtomobil ishlab chiqarilayotgan jarayon tasvirlangan rasmlar ilib qo`yiladi:

- Matnning 2-qismda zavod nimaga o`xshaydi?

- Avtomobil ishlab chiqarishda nimalardan foydalanilar ekan? (Robot, avtomat va yarim avtomatlardan).

- Ishchilar ularning ishini nima orqali boshqarib turar ekan?

- Mashinaning birinchi nimasi yasaladi?

- Demak, mashina qanday usulda yaratlar ekan? (Konveyr usulida).

O`quvchilar matnni qayta-qayta o`qib, savollarga javob topadilar.

8. Matnni to`liq -qayta hikoyalash.

Buning uchun doskaga quyidagi reja osib qo`yiladi.

Reja:

1. O`zbekiston va Koreya qo`shma korxonasining tashkil etilishi.

2. Avtomobil ishlab chiqarish jarayoni.

3. Eng arzon va qulay avtomobillar.

Reja o`qish daftariga yozdiriladi.

9. Umumlashtiruvchi suhbat.

- 1996-yil qanday zavod ishga tushirildi?

- Zavoda qanday mashinalar ishlab chiqariladi?

- O`zbekistonda ishlab chiqarilgan mashinalar boshqa avtomobillardan qanday farq qiladi?

10. Tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Rivojlanayotgan O`zbekiston sanoatini, dunoyga mashhur mashinalari haqidagi matnni o`qib-o`rganish davomida sizda qanday orzular paydo bo`ldi?

- Siz kelajakda qaysi kasbning egasi bo`lmoqchisiz?

11. O`quvchilarning faoliyatini baholash.

12. Uyga vazifa. Matnni o`qish va qayta hikoyalashga tayyorlanish, o`zlari orzu qilgan mashina rasmini chizib kelish. Shuningdek, «Istiqlolim-

istiqlol» mavzusida rasmlar chizib kelish. Keyingi darsda rasmlar ko'rgazmasi tashkil etilishi e'lon qilinadi.<sup>21</sup>

Ilmiy-ommabop maqolalarni o'qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti hakida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undash aniq bilim olishga o'rgatishdan iborat. Ilmiy prozada-real muhit faktlarini kuzatish natijasining mantiqim umumlashmalari va xulosalari hisoblangan aniq tushunchalar aks ettiriladi.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi maqolalarni o'qish bilan bo'liq holda tabiat hodisalarini kuzatish (masalan, daraxt kurtaklarning bo'rtishi), o'quvchilarni kishilarning mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergan buyuk tarixiy voqealarning guvohi va ishtirokchilari bo'lgan kishilar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq. Masalan, yil fasllari (kuz, qish, bahor, yoz) da mavsumiy tabiat hodisalari (ob-havoning o'zgarishi, o'simlik va hayvonlarning hayoti)ni, shuningdek, kishilarning mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog', xiyobonlarga) sayohatlar o'tkazish ko'zda tutiladi. Sayohatlar bilan bog'liq holda predmet darslar o'tkazilib, o'quvchilarning o'zlari yiqqan, shuningdek, o'qituvchi olib kelgan daraxt kurtaklari, gullar, turli o'simlik va boshqalar o'rganiladi. Sayohatda ko'rganlaridan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyushtiriladi. Predmet darslarida ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog'lab o'qitish kishilar ilgari baxtli hayot uchun, o'z hayotlarini yaxshilash uchun, otabobolarimiz dushmandan vatanini saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; bolalar mehnat hayotning asosi ekanini, kishilar hayoti mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

---

<sup>21</sup> Matchonov S., Gulomova X., Dolimov Z. 4-sinfda o'qish darslari: O'qituvchi kitobi.- Toshkent: Yangiyul poligraf servise, 2007.- B. 20-22.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o`qish darsini uyushtirishda quyidagi reda varianti (sxemasi) asos qilib olinadi: 1) o`qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimni aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash tovushida taxminiy suhbat o`tkazish; 2) maqolani yoki uning bo`limini o`qish, ayrim so`zlarning ma`nosini tushuntirish; 3) maqola yoki uning bo`limi rejasini tuzish; 4) o`qilgan maqola yuzasidan suhbat; 5) o`qilgan bo`limning asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yozish; 6) reja asosida maqolani qayta o`qish; 7) maqolani yaxlit o`qish; bunda bolalarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o`zlashtirishlariga erishishni ko`zda tutiladi; 8) xulosalash va umumlashtirish; 9) reja asosida qayta hikoyalash.

Ilmiy-ommabop maqolalar bolalarni gazeta va jurnallarni o`qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o`zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o`stiradi.

Shuningdek, “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`lmiga kirgan ilmiy-ommabop maqolalar, ertak va she`rni o`rganish darslarida yangi pedagogik texnologiya asosida olib borilsa, ko`zlangan ijobiy natijaga erishish mumkin.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda biz yuqorida aytib o`tilgan pedagogik texnologiyaning mujassamlashtirilgan ta`lim turidan foydalanib “Tengdoshlar” bo`limiga kiritilgan har xil janrdagi asarlarni o`quvchilarga qay tarzda tushuntirish xususida keng to`xtalishni o`rinli deb bilddik.

Mujassamlashtirilgan ta`lim turida mavzu o`quvchilarga keng qamrovda tushuntiriladi. Bu ta`limning maqsadi esa shaxsning his qilish xususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta`lim jarayoni tuzilmasini yaratishdan iboratdir. Buning uchun o`qituvchi ham o`quvchi o`rniga o`zini qo`yib ko`rishi, uningdek his qilishi kerak bo`ladi. Shundagina o`quvchiga to`g`ri topshiriq berishi, bu orqali mavzuni ularni to`laqonli o`zlashtirishlariga ega bo`lish mumkin<sup>22</sup>

---

<sup>22</sup> Xojimatova Y., Mamanazarova R. Faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi yondashuvlar pedagogik texnologiyalarning muhim vositasidir : Metodik tavsiya.- Namangan, 2010.- B. 42-46.

Mujassamlashtirilgan ta'limning mohiyati esa mashg'ulotlarni bloklarga birlashtirish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirishga erishishdan iborat.

Masalan, Murod Xidirning "Ikki saxiy" ertagi matnini o'quvchilar o'qib tanishganlaridan so'ng ularni o'zlari qiziqqan fanlari bo'yicha guruhlariga bo'lib chiqish mumkin.

1-guruh o'qish, 2-guruh matematika, 3-guruh tabiatshunoslik, 4-guruh ona tili fanlari bo'yicha guruhlariga ajratilishi mumkin. Albatta, o'quvchilarning har biridan o'qituvchi ularning qaysi fanni ko'proq yaxshi ko'rishini so'rash hisobiga shu kabi guruhlariga ajratildi. Mujassamlashtirilgan ta'limda o'quvchilarga individual, juftlik va guruh tarzida ham yangi mavzuni tushuntirish mumkin.

Xullas, fanlar bo'yicha guruhlariga bo'lingan o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan topshiriq beriladi.

1- "O'qish" guruhiga mavzuni badiiylashtirgan holda talqin qilib berish.

2- "Matematika" guruhiga asarni matematik atamalar asosida boyitib bayon etib berish.

3- "Tabiatshunoslik" guruhiga ertakni tabiat bilan bog'lab yoritib berish.

4- "Ona tili" guruhiga ertakni til qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda tasvirlab berish kabi topshiriqlar beriladi.

Har bir guruh uchun vaqt ajratiladi.

Bu matn orqali o'quvchilar quyidagi xulosalarni chiqarishlari mumkin:

1. Har doim o'zidan kattalarga salom berish kerak.

2. Hech qachon o'zgalardan yordamni ayamaslik kerak.

3. Bilmagan narsani qilib ko'rmaslik kerak, aks holda qizchanning onasi holiga tushishi mumkin.

Mukammalliikka erishish yo'lida yaratilgan 3-sinf "O'qish kitobi"<sup>23</sup> darsligi hamda "Uchinchi sinfda o'qish darslari" metodik qo'llanmada ta'lim tizimi oldiga

---

<sup>23</sup> Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2010. – 224.

qo'yilgan talablar o'zining to'la ifodasini topgan bo'lib, o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham muhim dasturilamal vazifasini bajaradi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadbirlar natijasi o'laroq o'qituvchilar faoliyatida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi: o'qituvchilarning amaliy faoliyatida pedagogik texnologiya o'zining munosib o'rnini egallay boshladi, ta'lim jarayoniga interfaol usullar kirib keldi, ayrim o'qituvchilar tajribasida o'quv fanlarini o'zlashtirish muammosi asta-sekin bo'lsa-da ko'zga tashlana boshladi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talabalardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar daradsini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

“Ma'naviyat-qalb quyoshi” bo'limi bilan o'quvchilarni tanishtirish darslariga 11 soat vaqt ajratilgan

Bu bo'limda o'rganiladigan mavzular o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Bo'limning Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” ilmiy-ommabop maqolasi bilan boshlanishining o'ziyoq o'quvchilarning ruhiyatiga ma'naviy ozuqa berishga qaratilganligiga misoldir. Bo'limdagi matnlar bilan tanishish jarayonida o'quvchilar insondan faqat yaxshi nom qolishi, chaqimchilik, xiyonatdan hazar qilish, non-tuz haqiga xiyonat qilmaslik kerakligini o'rganadilar. “Hadislardan namunalar” mavzusida oq-u qorani ajratishga, ilmning afzaligini, ilmli xor bo'lmasligi haqidagi bilimlarni o'rganib boradilar. Bu maqsadlarga erishish uchun esa o'qituvchi turli ko'rgazmali qurollardan, hikoyat, rivoyat, maqollardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda biz anan Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” asari asosida olib borilgan darsdan namuna keltirib o'tishni o'rinli deb bildik.

Mavzu: Ma`naviyt-qalb quyoshi

O`quv materiali: Salomlashish odobi. Husayn Voiz Koshifiy

Darsda o`qituvchining maqsadi:

Ta`limiy maqsad: Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” asarini o`qish.

Tarbiyaviy maqsad: Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” asarini o`qish zamirida salomlashish madaniyati o`rganish, u xususidagi o`quvchilarning tafakkurini yanada kengaytirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilarning ifodali o`qish malakalarini rivojlantirish, asardan tegishli xulosa chiqarish.

1. Husayn Voiz Koshifiy haqida ma`lumot berish.

2. O`quvchilarning salomlashish odobi haqidagi bilimlarini boyitish.

3. Salom so`zining asl ma`nosini tushuntirish.

4. O`quvchilarni kattalar va tengdoshlari bilan salomlashishga o`rgatish.

5. O`qish malakasining sifatlari: to`g`ri, tez, ongli va ifodali o`qishlarini takomillashtirish.

6. O`quvchilar lug`atini mavdrid, jamoat joylari, vidolashish, maqbara, kanda qilmaslik, ochiq chehra kabi so`z va so`z birikmalari bilan boyitish.

7. Fikrni izchil tartib bilan bayon qilishga o`rgatish.

Darsining turi: Yangi bilim beruvchi, ilmiy.ommabop asar o`qish darsi.

Darsning metodi: Izohli o`qish, suhbat, ko`rgazmalilik metodlari.

Darsning jihozi: Salomlashish holati ifodalangan rasmlar.

Darsning borishi.

I. Yangi mavzuni o`rganishga o`quvchilarni tayyorlash.

1. Dars ikki xil saxna ko`rinishi bilan boshlanadi.

1-ko`rinish

1-o`quvchi: Salom, qalaysan?

2-o`quvchi: Nechego, bratan. Senchi?

1-o`quvchi: Bekorchilik

2-ko`rinish

1-o`quvchi: Assalom-u alaykum, do`stim Hasan.

2-o`quvchi: Vaalakum assalom, Anvar.

1-o`quvchi: Hasan, yo`l bo`lsin?

2-o`quvchi: Do`stim, kutubxonaga ketyapman.

O`qituvchi: - Siz qaysi do`stlarning muomalasini, salomlashishlarini to`g`ri deb hisoblaysiz?

Darsda o`qituvchi o`quvchilar bilan qanday salomlashadi? Biror o`quvchi javob beradi, so`ng o`qituvchi o`quvchilar bilan salomlashadi.

O`qituvchi: Assalom-u alaykum, aziz o`quvchilar.

O`quvchilar: Assalom-u alaykum, ustoz.

O`qituvchi: Bugun darsimizning mavzusini angladingizmi? Qaysi mavzuni o`rganar ekanmiz?

Doskaga "Mavzu. Ma`naviyat-qalb quyoshi" deb yozib qo`yiladi.

O`quv material: Salomlashish odobi. Husayn Voiz Koshifiy

2. Bo`lim mavzusi haqida suhbat.

- Bugun o`rganadigan bo`lim qanday noilanar ekan?

- Ma`naviyat- qalb quyoshi deganda nimani tushunasiz?

II. O`qituvchining hikoyasi:- Ma`naviyat-insonning fe`l-atvori, axloq – odobini, madaniyati va dunyoqarashini anglatadigan tushuncha. Xushmuomala, keng tushunchali, boshqalarga faqat yaxshilik qiluvchi, mehnatsevar, fidoyi kishilarning ma`naviya dunyosi boy deb ulug`lanadi. Aksincha, faqat o`zini o`ylaydigan xudbin, baxil, ta`magir va yalqov kishilarga ma`naviy dunyosi past, qashshoq deyiladi. Ma`naviy boylikning birinchi belgisi salomlashish odobidir.

3. Muallif haqida ma`lumot. O`qiladigan asar nomi va uning muallifi o`quvchilarga o`qitiladi.

- Husayn Voiz Koshifiy haqida nimalarni bilasiz?

O`qituvchining hikoyasi: - Husayn Voiz Koshifiy XV asrning yirik olimlaridan bo`lgan. U bundan 500 yil odin yashagan odob-axloqqa doir ko`pgina



asarlar yozgan. Koshifiy Xurosonda Husayn Boyqaroning odil maslahatchisi bo'lgan. Saltanat ishlarida shohga ko'maklashgan.

- O'ylang. "Salomlashish odobi" asarida nima haqida hikoya qilinadi?

O'qituvchi: Insonning xulq-odobi avvalo uning boshqa kishilar bilan munosabatida ko'zga tashalanadi. Salom bilan boshlangan har bir suhbat yomon niyatni ham qaytaradi. Yaxshilik eshiklarini ochadi. Lekin salomlashishning ham o'z qonun-qoidalari bor. Asarni o'qish davomida bu qoidalarni bilib olasiz.

4. Lug'at ishi.- Mavrud so'zining ma'nosini bilasizmi? (mavrud-biror ishning amalga oshirilishi uchun qulay fursat, vaqt.)

5. Asar matni bilan tanishtirish. Matnni o'qituvchi o'qib beradi. Topshiriq. Asarni diqqat bilan tinglang. Nega mavridda salomlashish kerakligini bilib oling.

6. Asar yuzasidan dastlabki suhbat. Asar mazmunini o'quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash yuzasidan savollar:- "Salom" so'zi qanday ma'noni bildiradi? -Nega mavridda salomlashiladi? - Ularning qaysilari esingizda qoldi? - Qanday holatlarda salom berilmaydi?

III. Asarni ichda o'qitish. Yuqorida berilgan savollar doskaga yozib qo'yiladi. Topshiriq.- Ichingizda o'qing. Doskadagi savollarga javob berishga tayyyorlaning.

IV. Tanlab o'qish.-Birinchi mavrid salomlashish qoidasini o'qing...- Yettinchi mavrid salomlashish qoidasini o'qing.- To'rtinchi mavrid salomlashish qoidasini o'qing...-Qaysi holatlarda salom berilmaydi? SHu fikrni topib o'qing.- Salom berayotgan kishining holati qanday bo'lishi kerak? SHu o'rinni topib o'qing.

V. Lug'at ishi. Quyidagi so'zlar doskaga yoziladi: mavrid, jamoat joylari, vidolashuv, maqbara, kanda qilmaslik, ochiq chehra va so'z birikmalari.

Izohli o'qish daftariga yozdiriladi.

VI. Qayta hikoyalash. Yetti xil mavrid salomlashish holati tasvirlangan rasmlar doskaga ilinadi. O'quvchilar har bir mavrid salomlashish qoidasini va mazmunini o'z so'zlari bilan hikoyalab beradilar.

VII. Asarni qismlarga bo`lib o`qish. Doskaga sakkiz o`quvchi chiqariladi. Ularning biri asarning bosh qismini, qolgan yetti o`quvchi yetti mavrid salomlashish odobini o`qiydi.

Oxirgi ikki xat boshini birinchi o`quvchi o`qiydi.

VIII. Darsda o`rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Darsda nimalarni bilib oldingiz? Asarni o`rganish orqali qanday xulosalarga keldingiz? Odob-axloq haqida qanday maqollarni bilasiz? Ma`nosini izohlashga harakat qiling.

Namuna:

Odob bozorda sotilmas.

Husn to`yda kerak, odob kunda kerak.

Odobni odobsizdan ham o`rganish mumkin.

Odobli bola elga manzur.

IX. O`quvchilarni rag`batlantirish.

X. Uyga vazifa: O`qish daftariga salomlashish mavridalarini yozib kelish va ularni yod olish.

Umuman, har bir olib boriladigan dars jarayonida doimo ngi pedagogik texnologiyani qo`llagan holda darslarni tashkil etib olib borish kerak. Ana shundagina har bir pedagog o`z oldiga qo`ygan maqsadiga to`la erisha oladi.

## **2.2. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish darsining metodik ishlanmasi.**

4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`lmiga kirgan har xil janrdagi asarlarni o`rganish darslari jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Dars mashg`uloti ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta`lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'obatlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasida eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi–yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir ta`lim oluvchi to`zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o`zlashtirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya) larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o`zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida ta`lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablari asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo`l qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya)lari baholanib boriladigan bo`lsa, ta`lim oluvchilar o`z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo`llashdan asosiy maqsad ta`lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e`tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

“Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`lmini o`rganish darslari jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarining o`zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish.

2. G'oyalarini yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarini tayyorlab qo`yish.

3. Muammo (yoki mavzu) ni aniqlash.

4. Mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo`lgan shartlarni belgilash.

Shartlar quyidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

a) ta`lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi;

b) ta`lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

v) g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi;

s) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning ta'lim oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishish.

5. Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.

6. Muayyan qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish.

7. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash.

8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan qulish, ularga nisbatan kinoyali sharhlar bildirilishiga yo'l qo'ymaslik.

9. Ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalar bildirilishi davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik<sup>24</sup>.

Bu kabi metodlarni qo'llab olib borilgan dars o'z navbatida qiziqarli va o'quvchilarni dars mashg'ulotni to'liq o'zlashtirishiga olib keladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda yurtimizda boshlang'ich ta'lim jarayoni tubdan isloh qilinib, ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv dasturlari amaliyotga joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qunt va tirishqoqlik bilan o'qishlari, o'zlarining xatti-harakatlarining o'quv mehnati talabalarini bajarishga qaratish, istiqboldagi o'quv maqsadlarini mustaqil belgilashga, muayyan maqsadga erishish uchun zaruriy vositalarni ongli tanlashga, erishgan natijalarni xolisona baholashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Demak, pedagogik texnologiyaning mujassamlashtirilgan ta'lim turi orqali ham o'quvchilarga yangi mavzuni qiziqarli tarzda tashkil etib yetkazish mumkin.

---

<sup>24</sup> WWW. referat. uz.

Shuning uchun doim bu kabi ta`lim turlaridan o`z o`rnida foydalanib borish maqsadga muvofiq bo`ladi.

4-sinf “O`qish kitobi”ga kiritilgan mavzularni o`quvchilarga o`rgatish jarayonida bugungi kunda ta`lim jarayonida keng qo`llanayotgan interfaol usullardan keng foydalangan holda darslarni tashkil etib olib borish kerak. Biz ishimizning ushbu qismida interfaol usullardan foydalangan holda olib borilgan darslar xususida to`xtalishni o`rinli deb bildik. Buning uchun quyidagi tarzda dars ishlanmalarini berib o`tdik:

Mavzu: Yaxshilik-inson ziynati

Dars materiallari: Yusuf Xos Hojibning “Odamdan nima qoladi?” asari va mavzuga oid rasmlar. Test topshiriqlari.

Darsning maqsadlari:

Ta`limiy maqsad: Yusuf Xos Hojibningning “Odamdan nima qoladi?” asarini o`qish borasida o`quvchilarni yaxshilik qilishga o`rgatish. Doimo yaxshilik qilish yaxshi xulq ekanligini o`quvchilarga singdirish.

Tarbiyaviy maqsad: Yusuf Xos Hojibning “Odamdan nima qoladi?” asari orqali o`quvchilarda yaxshilik qilish fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilarni asarni ifodali o`qishlarini ta`minlash hamda asarda ilgari surilgan fikrlar bilan tanishtirish.

Dars metodi: tushuntirish, suhbat, mustaqil ish metodi, aqliy hujum.

Darsning borishi:

Darsning rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. O`tgan mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini aniqlash va baholash.
3. O`quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.
4. Yangi mavzuni o`rganish.
5. Test savolari asosida o`quvchilar bilimini aniqlash va baholash.
6. Yangi mavzuni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.
7. uyga vazifa berish.

O`quvchilarning vazifasi.

1. O`quvchilarni guruhlarga ajratilib, guruh a`zolarining o`quv topshiriqlarini mustaqil bajarishlariga erishish.

2. O`quv materialini yaxlit holda o`zlashtirishga erishish.

3. Yangi mavzu yuzasidan guruhlar o`rtasida savol-javob, bahs-munozarada ishtirok etish.

Darsning borishi.

O`tilgan mavzu ustida ishlash.

1. Asar matni ostida berilgan savollarga javob olish.

2. Asar muallifi haqida suhbat.

3. Ifodali o`qish mashqi. Savol-topshiriqlar.

–Salomlashishning 7-mavridi berilgan qismni ifodali o`qib bering. – Qaysi holatda salom berilmaydi? SHu o`rinni ifodali o`qib bering. - Kim kimga salom beradi? Shu o`rinni ifodali o`qib bering.

- Salomlashishda insonning chehrasi qanday bo`lishi kerak? SHu qismni topib o`qing!

4. O`quvchilarning javobi umumlashtirilib, tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Qanday holdatlarda salom beriladi?

- Kim kimga salom berishi kerak?

- Qanday holatlarda salom berilmaydi?

Yangi mavzu ustida ishlashni modul dasturi asosida ifodalash. O`quvchilar darsni olib borish tartibi bilan tanishtiriladi.

O`quvchi faoliyat elementlarining har biri yozilgan varaq o`quvchilar javobi to`ldirilib, umumlashtirilib, baholanib boriladi.

2. Ayrim misralar izohi.

1. Tiriklikda jami ezguliklarni yig`moq kerak. Ular keyinchalik ezgulik va kiygulik bo`ladi.

2. Dono maqtov olar, nodon-chi- so`kish,

O`zing o`yla, senga ma`qul qaysi ish.

3. Yaxshi nom oladi, ko`r ezgu kishi.

Yomonlar nasibi- el-yurt qarg`ishi.

4. Yomonlik go`yo o`t, yondirar, yoqar, o`tishga kechlik yo`q, u soy tez oqar.

3. Yangi mavzuni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Qanday odamlar yaxshi nom qoldiradi?

- Qanday odamlardan yomon nom qoladi?

- Qanday kishilar maqtov oladi?

- O`zingizda qanday yaxshi va yomon xususiyatlar bor? O`ylab ko`ring.

Uyga vazifa: Asarni ifodali o`qishga tayyorlanib kelish. O`zlariga ma`qul misralarni yod olish. Asar matni ostida berilgan savollarga javob topib kelish.<sup>25</sup>

Izoh: “Odamdan nima qoladi?”. (Yusuf Xos Hojib) asari ikki soatlik darsga mo`ljallangan.

#### 1-modul

O`quv faoliyati elementi (O`FE)	O`quv materiali yuzasidan topshiriqlar	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko`rsatmalar	Vahti	O`quv faol
1- O`FE	Maqsad: O`quvchilarni ichda mustaqil o`rganishga o`rgatish So`z ma`nolari ustida ishlashga o`rgatish, Yusuf Xos Hojib haqida ma`lumot berish. Savol-topshiriqlar: 1.Asarni ichda	Darslikdan “Odamdan nima qoladi?” (Yusuf Xos Hojib) asarini o`qing. Savollarga yakka tartibda javob bering. Savol-javobda ishtirok eting. O`z faoliyatingizni baholab boring.	daqiqa	

<sup>25</sup> Manchonov S. va boshqalar. 4-sinfda o`qish darslari: O`qituvchi kitobi.- T.: Yangiyo`l poligraf servise, 2007.- B.62-63.

	<p>o`qish.</p> <p>2. Ma`nosi tushunarsiz so`zlarni lug`at daftaringizga yozing.</p> <p>3. Asar mavzusini aniqlang.</p> <p>4. Qanday odaimlarni yaxshi deyish mumkin?</p>			
2- O`FE	<p>Maqsad: Asar voqealarini qismlarga ajratib, har bir qismning mazmunini, ilgari surilayotgan fikrni o`zlashtirib olishlariga erishish, o`qish malakalarini takomillashtirish.</p> <p>Savol-topshiriqlar:</p> <p>1. Asarni necha qismga ajratish mumkin?</p> <p>2. Birinchi qismni o`qing va qayta hikoyalang.</p> <p>3. Birinchi qismlada</p>	<p>Asarni ichingizda o`qing va qismlarga ajrating. Birinchi qismni o`qing va qayta hikoyalashga tayyorlaning. Birinchi qismdagi asosiy fikrni ifodalovchi gaplarni toping.</p>	daqiqa	



	ilgari surilgan asosiy fikrni aniqlang.			
3- O`FE	<p>Maqsad: O`quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o`rgatish. Tanlab o`qish orqali asardagi muhim fikrlarni o`zlashtirishlariga erishish.</p> <p>Savol-topshiriqlar:</p> <p>1. Yozuvchi tiriklikda nima qilmoq kerak deydi? Shu o`rinlarni topib o`qing.</p> <p>2. Dono va nodon kishilar haqida aytilgan fikrni topib o`qing va ma`nosini tushuntiring.</p> <p>3. Yaxshi va yomon kishilar haqida aytilgan fikrlar haqida topib o`qing va ma`nosini</p>	<p>Savol va topshiriqlarga javob topish uchun asarni ichingizda o`qing. Ma`nosini o`z so`zlaringiz bilan so`zlab berishga tayyorlaning.</p>	daqiqa	

	tushuntiring. 4. Yomonlik haqidagi misralarni topib o`qing va ma`nosini tushuntiring.			
--	--	--	--	--

Ikkinchi dars ham shu tarzda tashkil etiladi. Yuqoridagi savol-topshiriqlardan foydalaniladi.

Foydalanish uchun savol-topshiriqlar:

1. Bilimsiz kishilar haqidagi o`rinlarni va ma`nosini tushuntiring.

2. Turkiy tildagi masal keltirilgan misralarni topib o`qing va ma`nosini tushuntiring.

3. Alp Er To`nga haqidagi fikrlar bayon qilingan misralarni topib o`qing. O`ylab ko`ring, sizning tabiatigizda unga yaqinlik borsmi?

Misralar izohi.

1. Bilimsiz kishi to`rdan joy olsa,

To`r poygak, poygak esa to`r bo`ladi.

2. Kishining husni yuz-ko`zda bo`lgani kabi tilning ko`rki so`zdir.

3. Alp Er To`nga turklarning mashhur qahramonidir.

Uning dong`i olamga yoyilgan.<sup>26</sup>

Xullas, 4-sinf o`qish darsligida berilgan “Ma`naviyat-ialb quyoshi” bo`limida berilgan mavzularni bolalarning yoshiga va saviyasiga mos tarzda tashkil etib, tushuntirilsa, o`quvchilarga mazkur bo`lim mavzulariga bo`lgan qiziqish ortadi, erkin va mustaqil fikrlash ko`nikmasi shakllanadi. Shuning uchun har bir darsni iloji

---

<sup>26</sup> Manchonov S. va boshqalar. 4-sinfda o`qish darslari: O`qituvchi kitobi.- T.: Yangiyo`l poligraf servise, 2007.- B 62-65.

boricha qiziqarli tarzda, bir-birini takrorlamagan holda tashkil etib olib borish maqsadga muvofiq bo`ladi.

### **2.3. Tajriba-sinov ishi.**

Ushbu “O`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish metodikasi (4-sinf)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz orqali bugungi kunda ta`lim jarayonidagi muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo`llari va ta`limga oid innovatsion texnologiyalar, ularning ta`lim tizimidagi o`rni haqida baholi qudrat ma`lumot berishga, ularning muammolarini hal etishga urinib ko`rdik. Ta`limda uchragan va uchrashi mumkin bo`lgan pedagogik muammolarni o`z qarashimiz bilan hal etishga urindik, ularning yangi mukammal yo`llarini topishga harakat qildik. Biz o`z fikrimizni isbotlash uchun tajriba-sinov ishini olib bordik. Bu tajriba-sinov ishimiz, asosan, Namangan viloyati Namangan shahridagi 31-maktabda olib borildi. Dastlab biz o`ylagan muammolarimizni kuzatdik, ularni kamchilik deb hisoblagan, o`ylaganlarimizga ishonch hosil qilish uchun Namangan viloyati Namangan shahrigi 31-maktabning 4-“B” va 4-“V” sinflarini oldik. Mavzu maktab pedagogik Kengashida ko`rib chiqildi va ma`qullandi. Tajriba uchun mas`ul o`qituvchilar ham birlashtirildi. Rejalar ishlab chiqildi. Biz ishni dastlab mavzu haqida o`quvchilarga tushuncha berishdan boshladik. Ularning tushunchalari boyitildi. Bu haqda savol-javoblar o`tkazildi. O`qituvchilarning bu haqdagi fikr-mulohazalari ham atroflicha tahlil qilib o`tildi. Maktabda ona tili darslarining holatlari chuqur tahlil qilib o`tildi. Darslar kuzatildi va bu haqda fikrlar bildirildi. Boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirish yo`llari masalasi keng tushuntirildi. Yig`ilishlar o`tkazildi. Yig`ilishda mavzuga bog`lab savol-javoblar o`tkazildi.

Tajriba –sinov ishlarini biz uch bosqichda olib bordik.

“O`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish metodikasi (4-sinf)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek,

Namangan viloyati Namangan shahridagi 31-maktabda 2017-yilning 6-mart oyidan 6-may oyiigacha qadar 3 bosqichda olib bordik.



I bosqich. Kuzatuv bosqichi.

Maqsad va vazifalar: O`qituvchi va o`quvchilar jamoasi bilan tanishib, 3-sinf o`qish darslarini kuzatish, ta`lim jarayonida bitiruv malakavi ishi mavzusiga alohida e`tiborni qaratish.

Men tajriba ishining kuzatuv bosqichida 4-“B” va 4-“V” sinflarni kuzatdim. Sinf o`quvchilari haqida to`liq ma`lumot oldim. Ular bilan tanishib olgach, ona tili darslarini kuzatdim. Natijani bilish uchun o`quvchilarni “Tengdoshlar” bo`lmida berilgan asarlar bilan yaqindan tanishtirish yo`llarini aniqlash maqsadida matnlarni o`qitdim.

Bular orqali o`quvchilarning bilim darajasini aniqlab oldim. Buning uchun yuqorida aytib o`tilgan topshiriqlarni amalga oshirdim. 4-“B” sinfda 35 ta, 4-“V” sinfda 37 ta o`quvchi qatnashdi va natija quyidagicha baholandi:

### TAJRIBADAN OLDINGI NATIJALAR



Sinf	O`quvchilar	Qatnashdi
4- "B"	35	35
4-"V"	37	37

O`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi tarzda boholandilar:

"5" ball		"4" ball		"3" ball		"2" ball	
nafar	%	nafar	%	nafar	%	nafar	%
8	23	10	29	12	34	5	14
Ta	%	ta	%	ta	%	ta	%
7	19	10	27	13	35	7	19

35-100 %

37-100%

18-X

17-X

35X=18 100

37X=17 100

X= 18 100:35

X=17 100:37

X=51 %

X=46 %

Nazorat sinfida o`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi ko`rsatkichni ko`rsatgani aniqlandi:

"5" ball 8 ta;

"4" ball 10 ta;

"3" ball 12 ta;

"2" ball 5 ta

Tajriba sinfida esa o`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi ko`rsatkichlarni ko`rsatgani aniqlandi:

"5" ball 7 ta;

"4" ball 10 ta;

"3" ball 13 ta;

"2" ball 7 ta.

Bu ma`lumotlardan ko`rinadiki, mavzu haqida o`quvchilar umumiy tushunchaga ega ekanlar.

Shunday qilib, ushbu natijalardan har ikkala sinfning o`qish darslarida o`quvchilarni bo`lim materiallari, xususan 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limiga kiritilgan har xil janrdagi asarlar bilan tanishtirish bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichlarini, bilimlarini bilib oldik. Ushbu natijalarni olgandan so`ng sinfni yanada keng bilib oldik.

So`ng II bosqichga o`tdik. Unda men asosan, 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarni “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limi bilan tanishtirishga o`rgatish bo`yicha bilim va malakalarini kengaytirishga harakat qildim.

II bosqich rivojlantiruvchi bosqich.

Maqsad va vazifalar: Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid dars ishlanmalari orqali darsning samaradorligini oshirish, o`quvchilarning “Tengdoshlar” bo`limida berilgan har xil janrdagi asarlar bilan tanishtirish, bolalarda bu mavzularga bo`lgan qiziqishni oshirish.

Biz tajriba ishimizda bir necha dars ishlanmalaridan foydalandik. Shu dars ishlanmalaridan foydalanib darsni o`tib berdik. So`ng bu darslarni kuzatdik va natijani oldik: O`quvchilardan darsga tayyorgarlik darajalari so`raldi.

Shunday qilib, biz mavzu haqida tajriba sinfimizda ishni olib borishni boshladik. Buning uchun reja tuzib chiqildi. Shu reja asosida mukammal ish olib borishga harakat qildik. Avval darslarni kuzatdik. Qilinadigan ishlarni belgiladik. Ayrimlaridan voz kechdik. O`quvchilarni zeriktiradigan, o`rinlar olib tashlandi. Darslar asosan, savol-javob, bahs-munozara, mashq matnlari va ulardagi gaplarni tahlil qilishi tarzida o`tkazila boshlandi.

Bu kabi ishlar kelajakda o`tkaziladigan darslarni qanday o`tkazish kerakligini belgilab berdi. Shu sababli, biz ishimizni asosan, o`quvchilarning takliflaridan kelib chiqib belgiladik.

Avval biz o`quvchilarni darslik bilan yaqindan tanishtirib oldik. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limi bilan tanishtirish yuzasidan o`z fikr-mulohazalarimizni bildirdik. O`quvchilarning fikrlarini ham bilib oldik. Ularni o`rgandik, saraladik. Shular asosida ularni ifodali o`qishga o`rgatish darslarini uyushtirdik. Bir nechta namunaviy darslarni tashkil etdik. Mavzuga bog`lab darslarni

o`tib berdik. O`quvchilarning qiziqishi juda oshib ketdi. Chunki tashkil qilingan darslar o`quvchilarni zeriktirishga yo`l qo`ymadi. Ularda mustaqil va erkin fikr yuritishni, mavzuga oid gaplarni bemaolol tahlil qilishni ta`minladi. Bugungi ta`limning asosiy shartlaridan biri ham o`quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, bo`lim materiallarini to`liq o`zlashtirishga erishishdir..

Dunyo bo`yicha ta`lim jarayoniga e`tibor juda kuchayib ketmoqda. Biz o`qituvchilar ularni to`g`ri tushungan holda darslarda o`quvchi mustaqilligini ta`minlash, ularda mustaqil ishlash, ona tili darslarida o`quvchilarni “Tengdoshlar” bo`limi haqidagi tasavvurlarini, bilim darajalarini o`stirishga doimo diqqatni qaratmog`imiz kerak bo`ladi.

Tajriba sinflarda 4-sinf ona tili darslarida o`quvchilarni “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limi bilan tanishtirish bo`yicha ish olib borildi. Musobaqa darslari o`tkazildi. Darslarda o`quvchilar rag`batlantirildi. Biz darslarda, asosan, o`quvchilarni rag`batlantirishga e`tiborni qaratdik. Bulardan tashqari uyga berilgan vazifalarga ham e`tibor berdik. Chunki bu uyga berilgan vazifalarni bajarishlari orqali o`quvchilarning mavzuni qay tarzda tushunganliklarini ochiq ko`rish mumkin. Shu sababli qilingan nazorat ishlarida tajriba sinflarida natija yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Ta`lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhimligi va afzalliklari haqida to`xtalib o`tamiz.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta`lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta`limda kutilgan natijalarga erishiladi, vaqt tejiladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samaradorligi demakdir.

Pedagogik texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi – ishlangan model boshqa pedagoglar qo`llaganda ham xuddi shunday samara berishi kerakligini bildiradi. Bir so`z bilan aytganda, ta`lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta`lim samarasi yangi bosqichga ko`tariladi, ya`ni:

- bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

- o`quvchining o`quv mehnatiga mas`uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarini mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- erkin fikrlash malakasi ortadi;
- shaxsning jamiyatda o`z o`rnini tezroq topishi uchun muhit yaratadi.

Buning uchun bugungi kunda boshlang'ich sinf o`qituvchilari o`z o`quvchilariga “Sen buni bilishing kerak” degan majburlovchi da`vatdan “Menga bu zarur, men buni bilishga va uni hayotda qo`llashga qodirman” degan ichki ishonch va intilishni uyg`otishga o`tishi kerak.

Yangi pedagogik texnologiya ta`lim samaradorligini oshirishning muhim mezonidir.

Yangi pedagogik texnologiyani qo`llashning ahamiyati katta. Hammamizga ma`lumki boshlang'ich o`quvchilari yangiglikka intiluvchan, qiziquvchi, bilim olishga shijoati yuksak darajada bo`ladi.

Odatda, o`qituvchining o`quvchilarga bir xil qolipda dars o`tishia n`anaga aylangan. Endilikda esa o`quvchilarga mustaqil topshiriq berish, darsga mustaqil tayyorgarlik ko`rib kelish, berilgan mavzu yuzasidan erkin fikr bildirishni yangi usulda dars o`tishning asosidir. Noan`anaviy usulda dars o`tishda biz o`quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruhlarga bo`lib dars o`tishimiz mumkin. Bunda har bir o`quvchi bilan yakka tartibda ishlashga imkoniyat bo`ladi.

Boshlang'ich sinflarda dars o`tishda asosan, o`yin usulidan, interfaol usullardan, modulli texnologiyadan foydalanish mumkin. Bu metodlarning hammasi ham bolalardan mustaqil ishlashni, o`z fikrini erkin bayon qila olishni, keng fikrlashni talab etadi.

Agar boshlang'ich sinf o`qish darslarini yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib o`tilsa, u holda:

- O`qish darslarida o`rganiladigan mavzuni o`quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirishga imkon yaratiladi;
- o`quvchilarning zo`riqishining oldini olinadi;
- o`quvchilarning mustaqil bilim olishga imkon yaratiladi va ularning mustaqil faoliyati rivojlanadi;



-har bir o`quvchining darsga qiziqish bilan ishtirok etishi, o`z fikrni erkin bildirishga imkon bo`ladi;

-o`quvchilarning og`zaki nutqini erkin bildirishga imkon bo`ladi;

-o`quvchilarning og`zaki nutqining to`g`ri, ravon aniq tushunarli va ta`sirchan bo`lishini ta`minlaydi;

-bo`sh o`zlashtirishning oldi olinadi.

Hozirgi vaqtda turli pedagogik texnologiyalar mavjud bo`lib, ular bir-biridan yo`nalishi va maqsadi bilan farqlanadi, lekin umumiy jihati o`quvchilar tafakkurini o`stirishga yordam berishdir.

Malumki, keyingi yillarda ta`lim berishda o`quvchilarni faollashtirish hamda ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga e`tibor kuchaygan bo`lsa-da, uni amalda qo`llash juda sust bormoqda.

Pedagogik adabiyotlarda ta`limni takomillashtirish, o`quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, rivojlantiruvchi ta`lim, ta`limning yangi faol (innovatsion) metodlari, muammoli o`qitish metodi, dasturlashtirilgan ta`lim kabi atamalar negizida o`nlab nazariyalar, yondashishlar to`g`risida ma`lumot berilgan. Har qaysi kontseptsiya o`z zamonasi uchun ilmiy progressiv g`oyani ilgari surgan va ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini muayyan darajada oshirishiga xizmat qilib kelgan. Lekin ularning har biri alohida ilmiy – uslubiy jihatdan tahlil qilinsa, o`zining bir tomonlamaligi bilan ko`zga yaqqol tashlanadi. Bunday umumiy nuqsonning asosiy sababi pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlarining ham nazariy mulohazada, ham amaliy faoliyatda qamrab olganligidadir.

Ushbu kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi bosh omil – ta`lim-tarbiya jarayoniga subyekt (o`qituvchi) sifatida maqom (status) va rol berib kelganligidadir. Binobarin, ta`lim – tarbiya jarayonini bir tomonlama ta`sir o`tkazish va axborot (ma`lumot, bilim) uzatish har xil xususiyatli malakalarni shakllantirish tamoyillariga bo`ysundirilgandir. Natijada ta`lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari o`qituvchi bilan o`quvchilar o`rtasida teng huquqiylikning buzilishi yuz berganligi tufayli birining ikkinchisi ustidan ustuvorligi, hukmronligi qonuniy ahamiyat kasb etgan. O`quvchilar (o`quv motivlari, tabiiy mayllari, iste`dodi, salohiyati, saviyasi, uquvi)

zehni mazkur jarayonda hisobga olinmagan. Ta'lim –tarbiya jarayonida subyekt (o'qituvchi) –subyekt (o'qituvchi va o'quvchi) munosabati yaratilmas ekan, samaradorlik, mustaqil, ijodiy fikrlash to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas.

Ta'lim-tarbiya mazmuni to hozirgi kungacha kommunikatsiya, ya'ni bir yoqlama axborot uzatish (o'qituvchi axborot manbai, o'quvchi esa uni qabul qiluvchi) asosida qurilib kelinmoqda, vaholanki, u kommunikatsiya, interaktsiya, pertsepsiya singari tarkiblardan iborat bo'lishi lozim.

Hozirgi zamon o'qituvchi o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratmog'i lozim:

- ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollanishi;
- metodologik jihatdan fanni yaxshi tushunish;
- psixologiya va pedagogik bilimlarga egaligi.

Biz o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishga samarali ta'sir etadigan usullar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

“Tarmoqlar” (“Klaster”), “Dialogli o'qitish usuli”, “Matnlar bilan ishglash orqali”, “Xulosa” (“VEER texnologiyasi”).

“Tarmoqlar” (Klaster”-fikrlarning tarmorqlanishi bo'lib, u o'quvchilar mavzuni chuqur o'zlashtirishga hamda mavzuga taalluqli aniq fikrni erkin ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan tarmoqlanishlarini o'rgatadi.

O'qituvchi o'quvchilarning fikrini jalb qilish maqsadida doskaga bir so'z yozadi.

Ushbu so'z ularda qanday tasavvur hosil qilganini so'raydi hamda o'sha tasavvurimda hosil bo'lgan so'zlarni yozish, bu so'z atrofida qanday maydon hosil bo'lganligini o'zlari topib yozishlari kerak. O'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun tasavvur qilish darajasi hisobga olinadi. Shu maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilarni 5-6 tadan guruhlariga ajratib, ularga hamda bo'lajak munosabatni hosil qiluvchi so'z beriladi. So'ngra guruhdagilar berilgan so'zlarni kichik ma'nolarini topadilar hamda ushbu kichik ma'nolarini topadilar hamda ushbu kichik ma'nolarini bir-biriga birlashtiradilar. Bir qancha so'zlarni berib, ular atrofiga

(butunga) qismlarni (bo`laklarni) ajratuvchi (kichik ma`nolarni) birlashtirish kerakligi aytiladi va guruhdagilar birgalashib bu masalalarni hal qiladilar.

Matn yaratish va matn ustida ishlash o`quvchilarning tafakkurini o`stirishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bunda voqea-hodisalarni idrok qilishi, mohiyatini idrok qilishi, mohiyatini anglash, munosabat bildirishi kabi didaktik maqsadlarni amalga oshirishlari natijasida tafakkur va nutq rivojlanadi. O`quvchilarga matnlar ustida ishlashni o`rgatish orqali ularda ijodiylik, yaratuvchanlik (kreativlik) ni shakllantirish mumkin. O`quvchilarni ijod qilishga undashning asosiy mohiyati – tafakkurini muttasil o`stirib borishdir. Har bir o`quvchi o`rganganlarini mushohada qilish bilan amaliyotga tatbiq qilishi, tizimga solishi, mustaqil ravishda muhokama qilishi tafakkurini rivojlanganligining belgisidir.

VEER texnologiyasi- bu ko`p tarmoqli, muammo xarakteridagi mavzularni o`rganishga qaratilgan. Ya`ni, mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha bir yo`la axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama qilinadi. Masalan, afzallik va kamchilik, ijobiy va salbiy, foyda va zararlari belgilanadi. Natijada tanqidiy, taxminiy hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Ushbu interfaol texnologiya mavzuni o`rganishning turli bosqichlarida qo`llanilishi mumkin.

- boshida: o`z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o`rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur anglab yetish;
- yakunlash bosqichida: o`zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish.

Yuqorida keltirib o`tilgan texnologiyalar o`quvchilarda tanqidiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy hamda mustaqil tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

O`quvchi faol bo`lishi uchun, avalo, o`qtuvchi faolligi talab etaladi.

Darhaqiqat, faollik – bugunning eng muhim tushunchasi. Chunki Vatanimizning ravnaqi, ta`lim taraqqiyoti ko`p jihatdan o`qituvchi va o`quvchilarning faolligi bilan chambarchas bog`liq. Afsuski, faollikka daxldor ommaviylik borasida muammolarning borligi sir emas. Qirq besh minut davom etadigan dars jarayonida bir og`iz so`zlamaydigan «indamas» o`quvchilar, darslikdan ko`z ololmaydigan o`qituvchilar oramizda ko`plab topiladi.

Dars jarayonida faollikni ta`minlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

Guruhlarga taqsimlash.

Agar o`qituvchi o`quvchilarning erkin fikrlashini xohlasa kichik guruhlarda ma`lum bir texnologiyadan foydalanishi lozim. Bunda quyidagi uchul va vositalarga tayaniladi:

1. O`quvchilar sonini hisobga olgan holda sinf ikkitadan oltitagacha guruhlarga bo`linadi.

2. Har bir guruhda to`rttadan oltitagacha a`zo bo`lishi kerak. Guruhga eng faol o`quvchi sardor qilib saylanadi.

3. Har bir guruhga past o`zlashtiruvchi o`quvchilar teng taqsimlanishi maqsadga muvofiq.

4. Guruhlarni yangi mavzuga mos tarzda nomlanadi. Masalan, 3-sinf “O`qish kitobi” dagi “Tengdoshlar” bo`limining 1-mavzusi istiqlolimiz haqida. Shunga ko`ra guruhlarni nomlash mumkin. Guruh a`zolari jamoa nomini she`rlar, fikrlari bilan izohlaydilar. O`qituvchi esa ularni to`ldiradi.

5. Guruhlarning ko`pligi ish natijalarini topshirish vaqtini cho`zib yuboradi. Guruhda o`quvchilar sonining ko`pligi esa guruh ishida faol ishtirok etish imkonini cheklaydi. Shuning uchun o`quvchilarni guruhlarga taqsimlashni avvaldan rejalashtirish zarur.

6. Guruhlar tarkibidan doimo boxabar bo`lish, faqat “a`lochi” o`quvchilardan yoki “past” o`zlashtiruvchi o`quvchilardan iborat guruh tuzilishiga yo`l qo`ymaslik lozim.

Iloji boricha, guruhlar tarkibini tez-tez almashtirgan ma`qul. Buning uchun guruhlarga taqsimlashning qiziqarli usullarini o`ylab topish kerak.

Kichik guruhlarda ishlash.

Bu usul dars jarayonida o`quvchilarni faollashtiradi. Topshiriq yoki savol asosida muammo tanlab olinadi. Berilgan savolga bahsli jihatlar bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Kichik guruhlarda ishlayotganda guruh ishtirokchilari o`rtasida vazifalar taqsimlangani ma`qul. Bir o`quvchi munozarani boshlab beradi. Guruhga sardor

tanlanadi. Sardor guruh a`zolari ichida eng aqillisi, ziyragi bo`lishi lozim. Bu jarayonda o`qituvchi berilgan savollar uchun ajratilgan vaqtga e`tiborli bo`lishi talab etiladi. Ayni paytda o`qituvchi topshiriqni aniq qilib berishi kerak. Agar biror guruh topshiriqni tushunmasa, o`qituvchi guruh oldiga kelishi va topshiriqni tushuntirishi lozim. Guruhlar ishini o`quvchilardan tashkil etilgan ekspert guruhi baholab boradi. Guruhlar ishini yakunlaganlaridan so`ng ekspertlarga so`z beriladi, ular natijalarni e`lon qiladilar.

Kichik guruhlarad ishlashda o`qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. O`qituvchi kichik guruhlarad ishlashi uchun belgilangan vaqtga aniq rioya etadi.
2. Guruhlarga yordam berayotganda o`qituvchi tazyiq o`tkazmaydi.
3. Birinchi guruh aytgan fikrlar ikkinchi guruh tomonidan muhokamaga tortilishiga ijobiy qaraydi.
4. Zarur bo`lib qolgan o`rinlarda bildirilgan fikrlarga o`qituvchi tomonidan tuzatish kiritilishi mumkin.

Tezkor savol-javob.

Mazkur usul o`tilgan mavzular yuzasidan o`quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlash va aniqlashning eng tezkor usuli bo`lib, o`quvchilarni tez va aniq fikrlashga o`rgatiladi, bilimlarni yanada oshirishga undaydi, xotirani charxlaydi, dunyoqarashini kengaytiradi. Undan foydalanishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Tezkor savollar o`qituvchi tomonidan o`tilgan mavzular asosida tuziladi.
2. Javobni o`ylash uchun vaqt berilmasligi avvaldan aytiladi.
3. Savolarga javob berishda vaqtga jiddiy e`tibor beriladi.
4. Guruhlar bilan ishlashda savollarning miqdor va mazmunan yaqinligiga alohida e`tibor beriladi.
5. Natijalar o`z vaqtida e`lon qilib boriladi.

Tezkor savollardan namunalar.

(3-sinf uchun)

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat ramzlariga nimalar kiradi?

3. Bayrog`imizdagi yashil rang nimani bildiradi?
4. Madhiyamizning muallifi kim?
5. Siz qaysi respublikada yashayapsiz?
6. O`zbekiston qachon mustaqil Davlat deb e`lon qilindi?
7. O`zbekistonning poytaxti qayer?
8. O`zbekistonda davlat tili qaysi til?
9. Alisher Navoiy kim bo`lgan?
10. Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima?

Demak, 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish jarayonida shu kabi interfaol usullardan unumli foydalanishimiz mumkin. Bunda o`z navbatida darslikda berilgan mavzularni o`qish darslariga e`tibor qaratiladi. Shuningdek, darslikdagi berilgan mavzularni asosan ikki turga, she`riy va nasriy turga bo`lib, mazkur mavzular to`laqonli o`qish sifatlarini namoyish etilgan holda tahlil etiladi.

Umuman, 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilar “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limiga kirgan har xil janrdagi asarlar haqida qanday bilim, ko`nikma va malaka hosil qilganlarini bilish maqsadida beshtadan test savollari asosida aniqlanadi. Har bir test savoli 1 ball asosida baholanadi.

5 ta test savoliga javob bergan bo`lsa 5 ball

4 ta test savoliga javob bergan bo`lsa 4 ball

3 ta test savrliga javob bergan bo`lsa 3ball

2 ta test savoliga javob bergan bo`lsa 2 ball

Bu test savollarimiz quyidagilarda iborat edi:

1. Husayn Voiz Koshifiy nechanchi asrda yashab o`tgan?

A) V asrda;

B) XV asrda;

S) XIV asrda;

2. Ma`naviyat-qalb quyoshi deganda nimani tushunasiz?

A) Ma`naviyat-insonning fe`l-atvori, axloq-odobini, madaniyati va dunyoqarashini anglatadigan tushuncha;

B) Ma`naviyat-insonning o`zgalarga qilgan yaxshiligi;

S) Ma`naviyat-insonning boshqalarga umuman yomonlik qilmasligi;

3. Yusuf Xos Hojib odamdan asosan nima qolishini taxkidlab o`tgan?

A) Odaimdan uning qilgan eng yaxshi ezgu ishlari;

B) o`zgalarga qilgan yaxshiliklar;

S) doimo bir-biriga yomonlik qilishi, o`zini haddan ortiq o`zgalardan ustun ko`rishi, ilodi boricha o`zganing faqat uni hurmat qilishi istab yurishlari;

4. Munavvarqori Abdurashidxonov “Har kim ekanin o`rar” she`rida o`zining bir vaqtlar otasiga qilgan ishlari o`ziga qaytgan inson tismolida qaysi obrazni gavdalantirib beryapti?

A) o`g`il obrazini;

B) ota obrazini;

S) kelin obrazini;

5. “Chaqimchiga “Mukoft” ertagi qahramoni otboqar nima uchun zimga hukm etildi?

A) Shohning sirini fosh qilgani uchun;

B) O`z va`dasiga vafo qilgani uchun?

S) Birovning sirini o`zga kishiga borib chaqib bergani uchun;

Bundan tashqari, o`quvchilardan mavzuga oid uy insholari ham yozdirish mumkin.

Umuman, har bir dars mashg`ulotlari davomida o`tkazilgan tajriba-sinov ishlarini imkon qadar qiziqarli va bir-birini takrorlamagan holda tashkil etib olib borilsa ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Xullas, ishimizning 3-bosqichida buni aniqlash imkoniga ega bo`lamiz.



III bosqich. Solishtirma tahlil.

Maqsad va vazifalar: Kuzatuv va rivojlantiruvchi bosqichlaridagi natijalarni solishtirma-analiz qilish, ularni jadvallarda aks ettirish.

## **TAJRIBADAN KEYINGI NATIJALAR**

**4-“ B” sinf**

**4-“ V” sinf**



O`quvchilarning soni - 35			O`quvchilarning soni-37		
Nazorat sinfi – 4 –“B”			Tajriba sinfi -4-“V”		
Ballar	Natija	%	Ballar	Natija	%
“5” ball	8	23	“5” ball	9	24
“4” ball	11	31	“4” ball	10	27
“3” ball	14	40	“3” ball	16	43
“2” ball	2	6	“2” ball	2	6

35-100 %

37-100%

19-X

19-X

35X=19 100

37X=19 100

X= 19 100:35

X=19 100:37

X=54 %

X=51 %

Tajriba sinfida o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:

“5” ball 9 ta;

“4” ball 10 ta;

“3” ball 16 ta;

“2” ball 2 ta;

Nazorat sinfida esa o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:



“5” ball 8 ta;

“4” ball 11 ta;

“3” ball 14 ta.

“2” ball 2 ta;

Tajriba natijalarini tahlil qiladigan bo`lsak, nazorat sinfida “5” va “4”ballarning salmog`i 54% ni tashkil etadi. Tajriba sinfida esa yaxshi va a`lo baholarning salmog`i 51 % ni tashkil etdi. Tajriba-sinov ishining oldingi bosqichi bilan so`nggi bosqichini solishtirganda nazorat sinfida dastlab ushbu bo`limga kirgan har xil janrdagi asarlarni o`rganish 51 % ni tashkil qilgan bo`lsa, oxirida esa 54 % ni tashkil qildi. Demak, 3 % ga farq qilgan. Tajriba sinfi bo`lmish 4-“V” sinfida esa oldingi bosqichda o`zlashtirish natijasi 46 % ni tashkil qilgan bo`lsa, tajribasinov ishimizning so`nggi bosqichida bu ko`rsatkich 51 % ni tashkil qildi. Demak, 5 % ga ko`zlangan natijaga erisha oldik.

Bulardan ko`rinib turibdiki, qilingan tajriba natijasi oshgani isbotlandi. Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilgan dars samarali ekan. Bu orqali o`quvchilarda bizning ishimizga bo`lgan qiziqishlarini ortishiga, ularni shu mavzu yuzasidan erkin va mustaqil fikrlashga, tinish belgilari haqidagi bilim darajalari, malakalarini o`stirishga yo`naltirildi.

Umuman olganda, yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish bo`yicha oldib borilgan darslarda ular tanishish imkoniyatiga ega bo`lgan mavzular xususida keng va atroflicha bilim olishlariga, tushuncha hosil qilishlariga ham erishiladi. Shu bilan birga, ular mazkur matlarni quruq o`qish bilangina cheklanmay, balki ularni ongli ravishda tahlil qilib o`qish va o`zlashtirishga o`rganadilar ham o`zlari uchun eng kerakligi insoniylik, insonparvarlik ruhida chiniqishni oladilar.

## **XULOSA**

4-sinf o`quvchilarini o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi”bo`limi bilan tanishtirish uchun o`qituvchi katta malakaga, mahoratga va tajribaga ega bo`lmog`i lozim. Uning har bir darsi bir sahnaviy asarga o`xshashi, bu orqali o`quvchilar qalbiga sezilarli ta`sir o`tkaza olishi kerak. Toki, o`quvchi dars tugasa ham, shu o`qituvchining darsini intiqib kutadigan bo`lsin. Hattoki, o`qituvchi uyidan yomon kayfiyatda chiqqan bo`lsa ham, bu kayfiyati o`quvchilarga salbiy ta`sir etmasligi kerak. Bu kabi holatlarni biz aktyorlardagina, hofizlardagina uchratmaymiz. Balki o`qituvchilarda ham shu kabi vaziyatlarga ko`p bora duch kelamiz.

O`qituvchi ham har bir darsini ana shunday hayotiy voqealarni, ya`ni o`zini qiynagan voqealar bilan uyg`unlashtirmagan holda, olib borsa o`quvchilar undan o`ziga xos tarzda xulosa chiqaradilar, shuningdek, o`rganayotgan bo`lim materiallarini to`liq o`zlashtirishlariga erishiladi ham.

Umuman, 4-sinf o`quvchilarini o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limi bilan tanishtirish uchun shu sinfdagi bo`lim bilan yaqindan tanishtirish jarayonida mazkur mavzularga bo`lgan ularning qiziqishlarini orttirishga erishilishi lozim bo`ladi. Buning uchun har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi pedagogik mahoratga ega bo`lgan holda ta`lim jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklardan boxabar bo`lishi, ularni dars jarayonida bolalarning yoshi va xarakter xususyaitlarini e`tiborga olgan holda qo`llay bilishi lozim bo`ladi.

Agar o`qituvchi o`z ustida ishlamas ekan, albatta uning olib borgan har bir darsi bolalarda yaxshi taassurot qoldirmaydi. Vaholanki, o`qish darsi fanlar ichida eng qiziqarli va o`quvchilarning diqqatini tortuvchi fan bo`lib, bu darsni zerikarli ravshida tashkil etib olib borish yaramaydi. Shuni e`tiborga olgan holda 4-sinf o`quvchilarini o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” bo`limi bilan tanishtirishga, bu mavzulardan o`zlariga ijobiy xulosalarni chiqarib olishlariga urg`uni qaratdik. Sababi, bu bo`lim mavzulari bolalarning ta`lim, tarbiyasida, ma`naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu mavzularni o`tish jarayoniga befarq munosabatda yondashib bo`lmaydi. Buning uchun ta`lim jarayoniga kirib kelgan yangi pedagogik texnologiya, integratsiya, modulli texnologiya, interfaol usullardan keng qamrovda foydalanib darslarni tashkil etib olib borishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ayniqsa, interfaol usullar, modulli texnologiya asosida olib borgan darslarimiz o`quvchilarda katta qiziqishni uyg`otdi. Bu o`z navbatida ularni mustaqil va erkin mushohada yuritishga, o`z fikrini qo`rqmay ayta olishiga ham sabab bo`ldi.

Shuning uchun ta`lim jarayonida interfaol usullardan bolaning yosh xususiyatini e`tiborga olgan holda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu esa o`z navbatida 4-sinf o`quvchilarini o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi”

bo`limi bilan tanishtirish bo`yicha ularning bilim doiralari kengayishiga sabab bo`ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

### **I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat ko`rsatish-eng oliy saodatdir.- Toshkent: O`zbekiston, 2015. – 304 b.

2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.- 176 b.

3.Karimov I.A.Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.- 64-bet.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

5. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 104 b.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori // Xalq so'zi, 2017-yil.-21-aprel.

## **II. ILMIIY-USLUBIIY ADABIYOTLAR:**

### **II. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:**

1. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: O'qituvchi, 2004.- B.4.

2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2003.- 176 b.

3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006.

4. Ashurmatova D. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar faolligini oshirish // Boshlang'ich ta'lim, 2016.- № 2.- B.14-15.

5. Ihmatov Q. Ilg'or pedagogik texnologiyalar fanidan ma'ruzalar matni.- Namangan, 2000.- 8-bet.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –T., 2008.-B. 81-82.

7. Manchonov S. va boshqalar. 4-sinfda o'qish darslari: O'qituvchi kitobi.- T.: Yangiyo'l poligraf servise, 2007.- 192 b.

8. Matchonov S. va boshqalar. O'qish kitobi. 4: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- T.: Yangiyo'l poligraf servise, 2011.- B. 24-35.

9. Nasriddinova D. Kitobim-oftobim. 3: sinfdan tashqari o'qish kitobi.- Toshkent: O'qituvchi, 2014.- 160 b.

10. Osipova G. Bilganimiz bilmaganimizdan ko'p // Boshlang'ich ta'lim, 2006.- № 6. B. 10-11.

11. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- 352 b.
12. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
13. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohaza. – Toshkent, 2000. - 6-bet.
14. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent, 2010.- 138 b.
15. Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2002. – 168 .
16. Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi: Uchinchi sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2010. – 224.
17. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi: 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: O'qituvchi, 2016.- 216 b.
18. Umarova M. Uchinchi sinfda o'qish darslari: (Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uslubiy qo'llanma). - Toshkent: Ijod dunyosi, 2004.- 128 b.
19. Xojimatova Y., Mamanazarova R. Faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi yondashuvlar pedagogik texnologiyalarning muhim vositasidir : Metodik tavsiya.- Namangan, 2010.- B. 42-46.
20. G'afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: Ilm Ziyo, 2004. – 80 b.
21. G'affarova T. O'qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2012.-B.3.
22. G'affarova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qollanma.- Toshkent: Tafakkur, 2011.- B.63.

### **III. INTERNET MATERIALLARI:**

1. www nam su. uz.
2. WWW. referat. uz.
3. WWW. rambler. literature. ru.

**MAVZU: O`QISH DARSLARIDA “MA`NAVIYAT-QALB  
QUYOSHI” MAVZUSI O`RGANISH METODIKASI (4-SINF)**

**REJA:**

**KIRISH**

**I BOB. 4-SINF O`QISH DARSLARIDA “MA`NAVIYAT-QALB  
QUYOSHI” MAVZUSINI O`RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganishning maqsad va vazifalari.

1.2. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganishning ahamiyati.

## **II BOB. 4-SINF O`QISH DARSLARIDA “MA`NAVIYAT-QALB QUYOSHI” MAVZUSINI O`RGANISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH**

2.1. Ilg'or texnologiyalardan foydalanib 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish.

2.2. 4-sinf o`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusini o`rganish darsining metodik ishlanmasi.

2.3. Tajriba-sinov ishi.

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

#### **Ilova № 1**

**Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi, BT 49-2013-guruh bitiruvchisi Akbarova Nigora Shukurjon qizining “O`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusi o`rganish metodikasi (4-sinf)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida ilmiy rahbar filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Hamidova bilan ishga oid masalalar muhokamasi jarayoni.**





**Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, BT 49-2013-guruh bitiruvchisi Akbarova Nigora Shukurjon qizining Namangan shahridagi 31- umumiy o'rta ta'lim maktabida "O'qish darslarida "Ma'naviyat-qalb quyoshi" mavzusi o'rganish metodikasi (4-sinf)" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan o'tkazgan tajriba-sinov darsi.**



## **Ilova № 2**

**Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, BT 49-2013-guruh bitiruvchisi Akbarova Nigora Shukurjon qizining Namangan shahridagi 31-umumiy o'rta ta'lim maktabida "O'qish darslarida "Ma'naviyat-qalb quyoshi" mavzusi o'rganish metodikasi (4-sinf)" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan o'tkazgan tajriba-sinov darsi.**



**Akbarova Nigora Shukurjon qizining Namangan shahridagi 31- umumiy o`rta ta`lim maktabida “O`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusi o`rganish metodikasi (4-sinf) mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan o`tkazgan darsidan namuna**



### **Ilova № 3**

**Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish yo`nalishi, BT 49-2013-guruh bitiruvchisi Akbarova Nigora Shukurjon qizining Namangan shahridagi 31- umumiy o`rta ta`lim maktabida “O`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusi o`rganish metodikasi (4-sinf)” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan o`tkazgan tajriba-sinov darsi.**



**Akbarova Nigora Shukurjon qizining Namangan shahridagi 31- umumiy o`rta ta`lim maktabida “O`qish darslarida “Ma`naviyat-qalb quyoshi” mavzusi o`rganish metodikasi (4-sinf)” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan o`tkazgan darsidan namuna**

